

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
УНИВЕРСИТЕТИ**

ТАБИЁТ ФАНЛАРИ ФАКУЛЬТЕТИ

“География ва уни ўқитиш методикаси” кафедраси

“Ҳимояга рухсат этилсин”

Факультет декани

проф. П.Мирхамидова

«_____» _____ 2013 йил

5140500 – “География ва иқтисодий билим асослари” таълим йўналиши
402-гуруҳ талабаси

ТУЙЖАНОВ ОДИЛБЕК ОЛТЫНОВИЧнинг

**«Жиззах вилоятида рекреацияни ривожлантиришнинг географик
асослари»** мавзусидаги

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Илмий раҳбар: «География ва уни
ўқитиш методикаси» кафедраси мудири
_____ г.ф.н. Н.Р.Алимқулов

«Ҳимояга тавсия этилсин»

«География ва уни ўқитиш

методикаси» кафедраси мудири

_____ г.ф.н. Н.Р.Алимқулов

«_____» _____ 2013 йил

ТОШКЕНТ -2013 йил

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. JIZZAX VILOYATI TABIIY SHAROITI VA KOMPLEKSLARINING GEOGRAFIK JIHATLARI.

I.1. Jizzax viloyati geografik o'rni, tabiiy geografik xususiyatlari.

I.2. Geologik va gemorfologik tuzilishi.

I.3. Iqlimiy xususiyatlari.

I.4. Ichki suvlarining shakllanishi.

I.5. Biologik resurslarining tarqalishi.

II. BOB. JIZZAX VILOYATIDA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING TABIIY VA IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ASOSLARI.

2.1. Rekreatsiyani rivojlantirishning geografik asoslari.

2.2. Viloyat tabiiy komplekslari va ularni rekreatsiya nuqtai-nazaridan boholash.

2.3. Bozor iqtisodiyotining rekreatsiya faoliyatiga ta'siri.

III. BOB. VILOYATDA HUDUDIY REKREATSIYA TIZIMINI (HRT) TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA EKOLOGIK MUAMMOLARI.

3.1. Худудий рекреацион тизимни (HRT) rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy muammolari.

3.2. Худудий рекреацион тизим (HRT) ning iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlantirish yo'nalishlari.

XULOSA.

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH.

Milliy mustaqillik respublikamizda mehnat ahlining ishdan bo'sh vaqtini mazmunli va maroqli, xalq farovonligini oshirish, inson salomatligini mustahkamlash borasidagi ishlarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Har qanday davlat, har qanday jamiyat ham o'z boyliklari bilan qudratli hisoblanadi. Har bir xalq mamlakatning tabiiy zaminini, yer osti va usti zahiralari, tog'lari va o'rmonlari, daryo-yu-dengizlari, ulkan shaharlari, go'zal inshootlari bilan o'z kuch- qudratini namoyon etishga harakat qiladi.

Ko'p asrlik tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, jamiyatning haqiqiy boyligi, bu- inson, inson avlolidir. Shu boisdan, inson salomatligi, uning barkamolligi mamlakatimizda juda yuqori qadrlanadi.

Aholi farovonligining ortishi, barcha qulayliklarga ega bo'lgan uy- joylarga ko'chib o'tish, uy ishlarni ham mexanizasiyalashayotganligi, televizor oldida ko'proq o'tirish kabilar kishilarda jismoniy harakatlarni susayishiga sabab bo'lishi tabiiy. Ayniqsa shahar turmush tarzi kishilarni tabiatdan ancha uzoqlashtirib yubormoqda.

Hozirda respublikamizda sihatgohlar, dam olish uylari, istirohatgohlar va bolalarning dam olish uylari ko'payib borayotganiga qaramay, ular xalqimizning dam olish xususidagi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi talab va ehtiyojlarini to'la qondira olganicha yo'q.

Kishilarni tabiat quchog'ida, xushmanzara, orombaxsh go'shalarda sayr etib, dam olishlarini tashkil etish muammosi ustida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Darvoqe, ommaviy dam olish ehtiyojini mukammal qondirish uchun endilikda mavjud dam olish uylari yoki istirohat bog'larining o'zigina kifoya qilmaydi. Shuning uchun ham respublikaning muayyan tabiiy zonalarini ushbu maqsadlarga qaratilmoqda. Chunonchi, 1992-yilda Chotqol-Ugom va Zomin milliy tabiat bog'larining tashkil etilishi bunga yaqqol misoldir. Hududlarni tanlash, xordiq chiqaruvchilar va dam olishni tashkil etuvchilar nuqtai- nazaridan baholash,

u yerlarda bokira tabiatga halal bermaydigan tarzda dam olish muassasalarini joylashtirish hozirgi kundagi asosiy muammolardan biridir.

Bu borada qator ijobiy yutuqlarga erishildi va erishilmoqda.

Diplom ishi aynan, Jizzax viloyatida rekratsion turizmni rivojlantirishning geografik asoslari (“dam olish geografiyasi”) qaratilganligidan ham dolzarbdir.

Bundan tashqari rekreatsiyani rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy- ijtimoiy, ma’naviy- ma’rifiy rivojlanishiga salmoqli ulush qo’shishi muqarrar. Yurtboshimiz I.A.Karimovning – “Chet el turizmi respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmog’iga, uning valyuta tushumlarini to’ldiradigan muhim manbaga aylanib bormoqda. Shu sababli shinam mehmonxonalar, kempinglar qurilishini bundan buyon ham amalga oshiraverish, sayyohlar boradigan joylarni obod qilish bilan ham shug’ullanaverish kerak. Milliy-tarixiy va madaniy yodgorliklarni ta’mirlashga alohida e’tibor berish zarur. Bu esa ajnabiy sayyohlarni jalb etish uchungina emas, balki avvalo xalq qadriyatlarini qayta tiklash, yosh avlodni tarbiyalashda ham alohida ahamiyatga ega”- deb ta’kidlashlari bejiz emas. Chunki rekreatsiyaning rivojlanishi boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Inson salomatligini mustahkamlaydi. Inson salomatligi- mamlakatning asosiy boyligidir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, 10 ta bo’limdan va xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo’lib qo’lyozma asosida tashkil etildi.

I.BOB. JIZZAX VILOYATI TABIIY SHAROITI VA KOMPLEKSLARINING GEOGRAFIK JIHATLARI

I.1. Jizzax viloyati geografik o'rne, tabiiy geografik xususiyatlari.

Jizzax viloyati O'rta Osiyoning markaziy qismida, Turon tabiiy -geografik kichik o'lkasining tog'oldi va tog' oraliqi tekisliklari hududida joylashgan. O'zbekiston miqyosida viloyat mamlakatimizning deyarli markazida joylashgan bo'lib, Mirzacho'l, Qizilqum va Zarafshon tabiiy geografik o'lkalarining ma'lum bir qismlarini o'z ichiga oladi. Viloyatning umumiy maydoni 21,2 ming kv km, aholisi 1,4 mln kishidan ortiq. Вилоят худуди шарқдан қарбга 182,5 km, shimoldan janubga 175 km га ча давом етади.

Viloyat hududi Sirdaryo va Zarafshon daryolari vodiylari oralig'ida, O'rta Osiyoning janubi va janubi-sharqidagi baland tog' tizimidan shimol va shimoli-g'arb tomondagi juda keng tekislik cho'llar zonasiga tutashib ketadi. Viloyat hududi janub va janubi – g'arb tomon balandlashib boradi va tog' etagidagi tekisliklarga, tog' etaklari va tog' tizmalariga tutashadi.

Viloyatning sharqiy chegarasi quyidagi ob'ektlardan o'tadi. Janubga Chordara suv ombori bilan $41^{\circ} 10'$ sh.k., shimoliy-sharqdan janubga Айдар ko'lining sharqiy qismidagi Mirzacho'l tekisligi $40^{\circ} 50'$ sh.k.gacha davom etadi, shu tekislik orqali janubi-sharqqa tomon Markaziy Mirzacho'l kollektori orqali, xalqaro temir yo'lni kesib o'tib janubga Mirzacho'l tekisligi va xalqaro avtomobil yo'ligacha (M-39), ushbu yo'ldan janubiy-g'arb, so'ngra janubga Sarkisov nomidagi Janubiy Mirzacho'l kanaligacha, kanal orqali $68^{\circ} 36'$ shq.u. gacha davom etib, janubga xalqaro temir yo'l hamda Tojikiston Республикаси davlati chegarasigacha, janubi-sharqqa 2-tojik mashina kanali orqali $69^{\circ} 04'$ shq.u. gacha, janubga tomon Tojikiston Республикаси chegarasi orqali tog' oldi tekisliklari (600-1000m), so'ngra janubi-g'arbga, janubga Zomin tog' etaklari, Zomin milliy bog'i chegarasi bilan Shaxriston dovonigacha (3378m) davom etadi. Viloyatning janubiy chegarasi Turkiston tizmasining Shaxriston (3378m), Bozorxonim

(3401m), Burgutli (3108), Oybadam (2624m) dovonlari, tizmaning suv ayirg'ich qismidan 67° 30' shq.u. gacha davom etadi.

Viloyatning g'arbiy chegarasi shimoldan janubga Aydarko'lni kesib o'tadi va Nurota tog'oldi tekisliklari orqali Nurota, Qaroqchitog' (1101 m), Go'bdintog' (1672m) va Turkiston tizmasigacha davom etadi.

Viloyat hududi yaxlit tabiiy-geografik birlikda joylashmagan, uning hududi Qizilqum, Mirzacho'l, Zarafshon tabiiy-geografik o'lkalarining ma'lum qismlarini o'z ichiga oladi, shuning uchun uning landshaft-ekologik sharoiti xilma-xil va murakkabligi bilan ajralib turadi.

Jizzax viloyati janub va janubi-sharqda Tojikiston davlati bilan, janubi-qarb va qarbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, shimol va shimoli-sharqda Qozoqiston davlati va sharqda Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Viloyat chegaralarining umumiy uzunligi 760 km dan ortiq bo'lib, Qozoqiston davlati bilan 200 km, Tojikiston davlati bilan 190 km, Samarqand viloyati bilan 195 km, Sirdaryo viloyati bilan 100 km, Navoiy viloyati bilan 85 km dan ortiqroq masofani tashkil etadi.

Viloyat iqtisodiy-geografik jihatdan ancha qulay joylashganligi bilan ajralib turadi. Viloyatdan respublikamizning sharqiy viloyatlari Farqona, Andijon, Namangan, Toshkent qamda qarbiy viloyatlari Samarqand, Navoiy, Buxoro, Xorazm, Qoraqalpoqiston Respublikasi, shuningdek janubiy viloyatlar: Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini bir-biri bilan boq'lab turuvchi asosiy yo'llar o'tgan.

Shu bilan birga viloyat hududidan respublikamizning turli viloyatlari qamda horij davlatlarini boq'lab turuvchi yirik xalqaro avtomobil va temir yo'llarning o'tganligi viloyatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Viloyat respublikamizning yirik sanoat markazlari Toshkent, Farqona, Samarqand kabi iqtisodiy rivojlangan hududlar oraliq'ida joylashganligi ham alohida aqamiyatga egadir.

Viloyat hududi Turkiston, Molguzar, Nurota tog' tizmalari, tog'oldi mintaqalari, cho'l va tekisliklardan iborat. Tog' tizmalarining shimoli-qarbiy,

shimoliy yon baqirlarida archazorlar va o'tloqlar joylashgan. Bu joylarda katta ilmiy-amaliy aqamiyatga ega bo'lgan qo'riqxonalar (Zomin tog'-archazor qo'riqxonasi, Nurota tog'-yonqoqzor qo'riqxonasi), milliy boq (Zomin milliy boqi) va buyurtmalar (Arnasoy buyurtmasi) joylashganligi ahamiyatlidir.

Viloyat ekologik holatining buzilishiga asosan antropogen omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, viloyatda aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi, urbanizatsiya darajasi, shaharlar, sanoat korxonalari hamda avtomobillarning ko'payishi, turli xil qurilishlar tufayli havoga chang, zaharli gazlar, qurum, tutun va qattiq zarrachalar chiqarilishi oqibatida atrof-muhit ifloslanib bormoqda. Viloyat hududida joylashgan inson faoliyati ta'sirida vujudga kelgan Aydarko'l - Arnasoy - Tuzkon ko'llar tizimi viloyat landshaft-ekologik sharoitini o'zgartirib yubormoqda. Bunda viloyatning shimoliy qismidagi sug'oriladigan erlarning va yaylovlarning kamayishiga, ko'pgina xalq xo'jaligi ob'ektlarining suv bosishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat esa qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning sho'rlanishiga, hosildorlikning kamayishiga, er osti suvlarining ko'tarilishiga olib kelmoqda.

Hozirgi paytda respublikamizda, qolaversa viloyatda qam suv muammosi dolzarb. Bu muammo asosan aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, suqoriladigan er maydonlari sho'rlanishining oldini olish, er osti suvlari sathini me'yorda saqlab qolish, Aydarko'l tabiiy-texnogen ob'ektidagi suv hajmini ko'paytirmaslik kabilar bilan baholanadi. Lekin bu kabi muammolar viloyatda o'z yechimini topmaganligi sababli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqazo qiladi.

Viloyatning tabiiy sharoiti tahlili shuni ko'rsatadiki, suv resurslari asosan tog' va tog'oldi zonalarida tarqalgan bo'lib, oqar suvlar asosan qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarni sug'orish uchun ishlatiladi.

Demak, viloyat hududining ekologik sharoitiga Orol dengizining qurishi va inson faoliyati ta'sirida vujudga kelgan hamda uning shimoli-qarbiy qismida joylashgan tabiiy-texnogen ko'llar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari viloyat Qizilqum va Mirzacho'lga yaqin joylashganligi sababli changli shamollar ham viloyat ekologik sharoitiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

1.2. Geologik-gemorfologik tuzilishi.

Jizzax viloyati tog' oldi va tog'li hududlari Turkiston tizma tog'larining shimoliy yon bag'irlarida ohaktoshlardan tarkib topgan joylarini o'z ichiga oladi. Hududning dengiz sathidan balandligi shimolda 1000 m bo'lsa, janubida esa 30-40 metrga yetadi. Turkiston tizmasidan shimoliy-g'arbga qarab Morguzar tog'lari ajralib chiqqan bo'lib, ana shu tog' etaklarida viloyatning tog' oldi va tog'li hududlari ning asosiy qismi joylashgan. Morguzar tog'lari G'o'ralash dovoni (2500m) dan Sangzor daryosi darasigacha cho'zilib boradi. Daraning g'arb tomonida Nurota tog'lari davom etadi. Bu ikkala tog' orasidagi Sangzor darasi "Temurlang" yoki "Ilon o'tdi" darvozasi deb ataladi.

Morguzar tog'lari platoga o'xshash keng, yon bag'irlari esa qiya tekisliklarga o'xshaydi, uning ayniqsa shimoliy-sharqiy yon bag'rida do'ng tekisliklar va adirlar bor. Tog'ning o'rta, ayniqsa sharqiy qismi baland, sirtlari tor va qoyalidir. Hududda joylashgan tog'larning eng baland nuqtalari Shovqartog' (4030m), Qoburg'on (3925m), Iskandar (3324m), Chandir (3220m), Beshkent (3248m), G'o'ralash (3321m) kabilardir.

Morguzar tog'laridan janubda unga parallel holda geografik kenglik bo'ylab 70 km.ga cho'zilib ketgan va tepalari 3400m. dan oshiq bo'lgan Chumqor tog'lari ham Turkiston tog'larining janubiy-g'arbiy tarmoqlaridandir. Bu tog'lar Zarafshon va Sangzor daryolarining suvayirg'ichi hisoblanadi. Chumqor tog'lari g'arbda baland tekisliklarga (700-800) aylanib tugaydi, ammo shimoliy-g'arbdagi chekka qismi 1000-1600 m balandlikdagi G'obdun tog'i joylashgandir. Chumqortog' va G'obduntog' orasida yoysimon qumoq jinslardan tarkib topgan balandligi 700-800 m bo'lgan tekisliklar bor. Zarafshon daryosini Sangzor daryosi bilan qo'shgan Tuyatortar kanali shu tekislikdan o'tgan Chumqor tog'lari qirrasidan O'zbekiston bilan Tojikiston davlatlari o'rtasida chegara o'tgan. Morguzar bilan Turkiston-Chumqor tog'lari orasida Sangzor vodiysi joylashgan.

Viloyat tog' oldi va tog' hududi orografik jihatdan xilma-hildir. Ушбу худудларда Quyidagi orografik landshaftlar mavjud:

- tog'larning o'r-qir eng baland qirralari. Bu yerda asosan neval qorli rel'ef shakllari uchraydi;

- tik tushgan va o'yilib ketgan baland tog' yon bag'irlari. Bu yerda erroziya natijasida paydo bo'lgan rel'ef shakllari asosiy rol o'ynaydi;

- tog'larning baland joylarida poleozoy erasidan qolgan ohaktoshlarda poleogen davridan oldin paydo bo'lgan denutasion shakllar;

- chuqur o'yilgan o'rtacha balandlikdagi tik yon bag'irli tog'lar;

- u qadar chuqur o'yilmagan qiya yon bag'irli errozion akkumlyativ o'rtacha balandliklardagi tog'lar;

- poleozoy ohaktoshlarida o'rtacha balandliklardagi tog'larning denutasion yuzalari akkumlyativ rel'ef shakllari uchraydi;

- o'rtacha balandlikdagi tog'larda uchraydigan tor vodiylar; tangilar; errozion-gravitation rel'ef shakllari mavjud;

- errozion-denutasion rel'ef shakllariga ega bo'lgan tik yon bag'irli, kuchli va chuqur o'yilgan o'rtacha balandliklardagi tog'larning akkumlyativ-errozion terassalari- supasimon tekis maydonlari;

- errozion-denutasion rel'ef shakllari cho'qqayib tyrmaydigan errozion-denutasion past tog'lar;

- past tog'larning errozion-akkumlyativ rel'ef shakllariga ega bo'lgan akkumlyativ-errozion terassa yuzalari.

Viloyatning tog' oldi va tog'li hududlari naqadar past-baland bo'lmasin, uning eng go'zal va xushmanzara joylariga sayyohlar va tabiat shaydolari bemaol bora olishlari mumkin.

Geologik jihatdan hududda poleozoyning xilma-xil slanetslari, qumtosh-ohaktoshlari, kembriy davridan devon davrigacha paydo bo'lgan yotqiziqlar, ba'zan mezokaynazoy jinslari ko'pchilikni tashkil qiladi. Baland tog'lar aksari slanetslar, o'rtacha balandlikdagi tog'lar va past tog'larning yonbag'irlari ayniqsa tik. Poleozoy yotqiziqlari orasida kembriy, ordovik, silur, devon va karbon davrlarining yotqiziqlarini uchratish mumkin. Tog' yon bag'irlarining bir qismi yuqori silurning granatolitlar aralash qum-slanets jinslaridan tarkib topgan.

Ba'zi bir joylarda bu yotqiziqlarning ustini ohaktoshlar qoplab yotadi. Zomin milliy bog'ining Supa va Qizilmozor vodiylarida devon va toshko'mir davrlarining ko'mirli ohaktoshlari uchraydi. Qumtoshlar yer yuzasiga chiqib yotgan joylarda tog'lar qoyatoshlaridan iborat bo'lib, tepadan tushib kelgan tuproq-toshloq bilan qoplangan slanetslar yer yuzasiga chiqib qolgan joylarda tog'lar silliqroq rel'ef shakllari hosil qilgan va usti tepadan kelgan chag'irtosh aralash tuproq bilan qoplangan.

Daryo vodiylari aksari to'rtlamchi davrning shag'al aralash allyuvial-prolyuvial yotqiziqlari, soylarning bo'sh tomonlari esa qor-muz yotqiziqlari bilan qoplangan. Slanets va qumtoshlar silliq rel'ef shakllarini hosil qiladi. Neogen konglomeratlari oson yemiriladi, shuning uchun ba'zi bir joylarda bunday jinslardan ustunlar va piramidalarga o'xshash ajoyib shakllar vujudga kelgan. Neogen alovratlardan tuzilgan qizil jinsli yon bag'irlarda jarlar ko'p uchraydi.

Poleozoy ohaktoshlari yer yuzasiga chiqib qolgan joylarda landshaft ko'zni qamashtiradigan shakllar hosil qilgan. Ohaktoshlardan tuzilgan kulrang va och kulrang ulkan tog' tepalari hamda to'p-to'p yoki yakka holda o'sadigan archalarni tomosha qilib, kishi estetik zavq oladi.

Salgina past-baland daryo vodiylari, qirlar, qoyali tik yon bag'irlar, tog' qirralari va cho'qqilari ham dam olishni tashkil etish, sayyohlik va tog'alpinizmini rivojlantirish uchun juda qulaydir.

Landshaft – iqlim sharoitlarini kompleks o'rganish murakkab masalalardan hisoblanadi. Masalan: kurort zonasi tashkil qilish uchun landshaft hududining o'lchami, qulayliklari, plyaj zonalarining mavjudligi, iqlimning davolovchi unsurlarini bilish, o'rganish zarur bo'ladi. Tabiiy davolash resurslari rekreatsiya geografiyasining muammolari sifatida qaralib quyidagi aspektlarga bo'linadi:

1. Tabiiy davolash resurslarining genetik asosi va geografik muhitning bosh omillari bilan bog'liqligi.
2. Tabiiy davolash resurslarini tasnif qilish tamoyillari.
3. Tabiiy davolash resurslarini kartalashtirish va o'rganilishi.

4. Kurort ob'ektlarini o'zlashtirishni aniqlashga yo'naltirilgan tamoyillari.
5. Davolash resurslarini muhofaza qilish muammolari.

1.3. Iqlimiy xususiyatlari.

Jizzax viloyati tog' oldi va tog'li hududlari okeanlardan uzoqda va materikning ichki qismida joylashganligidan iqlimi, asosan qurg'oqchil, kontinental iqlimdir. Tog'li o'lkalarda tekislikka xos iqlimining ba'zi bir xususiyatlari: masalan kontinentallik, yillik va sutkalik harorat tafovutning kattaligi, havoning quruqligi, quyosh nurining o'tkirligi va uning ta'siri kabi xususiyatlari ахамиятлидир. Tog'li joylarda bo'ladigan bu iqlimiy xususiyatlar yumshoqroq bo'lishiga joyning balandligi va rel'efning xilma-xilligi sababdir. Tog'li hududlarda iqlimning tog'li rel'efga xos boshqa xususiyatlari ham, chunonchi bulutli kunlarning ko'pligi, qorning uzoq saqlanishi, yog'inlarning ko'pligi, haroratning past bo'lishi iqlimning turlicha bo'lishiga sababchidir.

Umuman tog' rel'efi, ya'ni tizmalarning past-balandligi va katta-kichikligi, quyoshga nisbatan qanday turishi, havo oqimlariga nisbatan joylanishi, tog' oralarida vodiy, botiq va platolarning bo'lishi turli iqlimlar paydo bo'lishiga shubhasiz ta'sir etadi, chunki tog'li hududlarda tekisliklarda bo'lmaydigan harorat inversiyasi, tog'-vodiy va fyon shamollari esib turadi. 1500-2000m dan baland tog'lar Atlantika okeani va O'rta dengiz tomonidan keladigan nam shamollarni to'sib, ko'proq tog'li va tog' oldi hududlarga yog'inlar yog'ishiga sabab bo'ladi.

Tog'larda harorat joining balandligiga qarab o'zgaradi.

Bu tog'lar janubiy-geografik kengliklarda bo'lishiga qaramay, yillik o'rtacha harorat 3200m dan yuqorida manfiy holatda bo'ladi. Tog' etaklarida ya'ni 400-500m balandliklarda iyul oyining o'rtacha harorati $+25+27^{\circ}\text{S}$ dan tushmaydi. Umuman tog'li hududlarda yoz salqin va juda qisqa bo'ladi. Tog'larda iyunning o'rtacha harorati $+4+10^{\circ}\text{C}$ dan tushmaydi.

Bu hududga qarashli tog' tizmalari sharqdan-g'arbga 1000km dan oshiq masofaga cho'zilganidan va baland tog'li o'lka bo'lganligidan iqlimi ham turli xil.

Lekin Turon tipli quruq iqlim hududning hamma joyida kuzatiladi. Adirlar, tog' oldi rayonlarida, tog' botiqlari va vodiylarning iqlimi issiq va quruq, qishi iliq. Iqlim tog' yon bag'irlarida va yuqori qismlarida salqin, yog'in miqdori ko'proq, yoz qisqa va uncha issiq bo'lmaydi, qish esa sovuq va uzoq vaqt davom etadi, qor qalin tushadi va yer betini uzoq vaqt qoplab yotadi. Bu yerlarga yog'adigan yillik yog'in miqdori 100-200 mm dan oshmaydi. Eng ko'p yog'in Morguzar tog'lariga (350-400mm) yog'adi. (1-jadval). Tog'larga ko'pincha yog'in qor tarzida yog'adi, qorning qalinligi 30-50 sm ga, ba'zi bir joylarda bir metrgacha yetadi. Baland tog'larda yildan-yilga to'plangan qordan firn qorlari, muzliklarni hosil bo'ladi. (1-jadval).

Harorat ham hamma yerda bir xil emas. Iyulning o'rtacha harorati tog' oldi tekisliklarida $+24$ $+46^{\circ}\text{S}$, yuqori qismlarida $+10$ $+15^{\circ}\text{S}$ ga yetadi. Eng yuqori harorat $+20$ $+46^{\circ}\text{S}$ gacha boradi. Yanvar harorati ancha past, o'rtacha $1-2^{\circ}\text{S}$ ga teng. Eng past harorat -23 -24°S , tog' hududlarida ya'ni Morguzar va Chumqortog' tog'lari etaklarida qattiq sovuq bo'ladi.

Tog' va tog' oldi rayonlari yozda unchalik darajada issiq bo'lmaydi. Janubda va shimol qismining ochiq bo'lishi shu hududning mikroiklimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tog' mintaqasining o'rta qismida sovuq bo'lmaydigan davr 144 kunga teng. Kuzgi sovuq oktyabr oylarida tushadi, bahor esa odatda may oyida boshlanadi. Pastki tog' oldi va tekislik joylarda sovuq bo'lmaydigan davr 170 kungacha davom etadi. Masalan, Zomin milliy tabiat bog'i hududida, baland tog' mintaqasi qismida- G'o'ralashsoyda, Qumbel va Kattashibarda iqlim ancha sovuq keladi. Bog' hududida 60-70 kun sovuq bo'lmaydi, pastki qismida yiliga yog'in 353mm, baland tog' qismida 343mm tushadi. Yog'inning asosiy qismi bahor fasliga to'g'ri keladi. Bahorda yog'inning 50 foizi, qolgani esa yoz, kuz, qish oylariga to'g'ri keladi.

Jizzax viloyati tog' oldi va tog'li hududlarining o'rtacha oylik va yillik yog'in (mm. hisobida) miqdori.

(1-jadval)

№	Stansiya	Absolyut balandlik	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1.	Jizzax	392	45	48	69	56	28	8	1	1	2	21	41	46
2.	Zomin	620	32	43	56	52	45	13	0,2	2	2	16	21	32
3.	Jizzax perevali	735	45	48	71	56	30	7	1	1	4	22	41	48
4.	G'allaorol	736	42	45	66	52	28	7	1	1	4	21	38	45
5.	Tuyatortar	800	43	54	66	64	36	10	3	1	2	21	37	41
6.	Sangzor	1313	47	51	75	59	32	8	1	1	4	24	44	51
7.	Boyqo'ng'ir	2000	61	65	96	76	40	10	1	1	5	30	55	66
8.	G'oralash	2050	53	57	84	66	35	9	1	1	4	26	48	57
9.	Ko'lsoy	2100	17	32	37	106	125	32	8	7	5	12	32	15
10.	Shaxriston davoni	3143	52	81	108	121	98	63	26	16	8	35	58	40

1.4. Ichki suvlarining shakllanishi.

Viloyat ichki suvlarining shakllanishiga joyning iqlimi, yer yuzasi va geografik tuzilishi katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan, mintaqa yer yuzasi va gidrologik xususiyatlarini inobatga olib uni ikki qismga ajratish mumkin.

Birinchi, tog'li qism ya'ni, daryo suvlarini hosil qiluvchi hudud. Bu yerda qorlarning, muzlarning erishidan va yog'inlarning ko'pligi tufayli daryolar va bir qancha soylar hosil bo'lishini kuzatish mumkin.

Ikkinchi, tekislik qismi ya'ni, suv sarflanadigan hudud. Tog'larda hosil bo'ladigan suv resurslari tekislik tomon harakatlanib bu yerda bug'lanishga,

ekinzorlarni sug'orishga, boshqa ehtiyojlarga va yer ostiga shimiladi. Jizzax viloyati hududining janubi- g'arbiy qismi baland tog'lardan iborat bo'lganligi boisi suv resurslariga ancha boy. Aynan, ana shu hududlarda mintaqadagi eng yirik suv manbalari joylashgan. Viloyatdagi eng uzun va sersuv hisoblangan Sangzor daryosining (123km) havzasi ham shu hududdan boshlanadi. Sangzorga oqimi davomida chap tomondan 14 ta, o'ng tomondan 9 ta soylar kelib qo'shiladi.

Viloyatning tog'li hududlari va tog' oldi rayonlarida oqar suv manbai jihatidan ma'lum tanqislik mavjud. Chunki, viloyat katta suv manbalariga ega bo'lgan daryolar o'zanidan nisbatan uzoqroqda joylashgan. Viloyatning tog'li hududlaridan boshlanadigan Sangzor va Zominsuv daryolari Turkiston tizmasining shimoliy yon bag'irlaridan boshlanadi. Lekin bu daryolar uncha sersuv emas, chunki ularning to'yinish manbalarida doimiy qor va muzliklar yo'q. Daryolar mavsumiy qor va yomg'irdan suv oladi va aprel-may oylarida suv eng yuqori darajada ko'payadi, yozda sayozlanib, tekisliklarda tugab ketadi. (2-jadval).

Sangzor daryosi Turkiston, Molguzar va Qo'ytosh tog'laridan to'yinib viloyatning Baxmal, Forish, G'allaorol, Jizzax tumanlaridagi qishloq xo'jaligi ekinlarini suv bilan taminlaydi. Daryo Jizzax shahri atrofida vodiya chiqib, ikkiga bo'linadi. Bir qismi janubi- sharq tomonga Tuyoqli kanali orqali Jizzax suv omboriga kelib quyiladi. Ikkinchi qismi esa Qili nomi bilan shimolga oqib Tuzkon ko'liga borib quyiladi.

Uzunligi va sersuvligi jihatidan viloyatda ikkinchi o'rinda Zominsuv daryosi (41 km) turadi. Zominsuv Shavkartog'dan boshlanib yuqori oqimida, Duoba qishlog'i yaqinida Yettikechuv va Galdirovutsoyning qo'shilishidan keyin ushbu nomni oladi. Zominsuv daryosi Zomin shahridan o'tgandan keyin tarmoqlarga bo'linib Qo'shtamg'ali qishlog'idan 3,5 km janubi- sharqda tugaydi. Bu daryodan Zomin shahri, Duoba, Yettikechuv, Quchchi va boshqa qishloqlar aholisi suv ichadi hamda ekin maydonlarini sug'oradi.

Zomin- Baxmal tog' va tog' oldi hududlaridagi soy va daryolarga gidrologik tavsif.

(2-jadval)

№	Daryolar, soylarning nomi	Boshlanish joyi	Uzunligi (km)	Suv sarfi (m ³ /c)
1.	Zominsuv	qishloq Duoba	546	222
2.	Sangzor	qishloq Qirq	570	250-300
3.	Yettikechuv	qishloq Yettikechuv	317	178
4.	Achchisoy	tog'ning yuqori qismidan	236	114
5.	Pishag'orsoy	tog'ning yuqori qismidan	111	45
6.	G'o'ralash	qishloq G'o'ralash	31,8	38,2
7.	Rovot soy	tog'ning yuqori qismidan	59	38
8.	Jantut	tog'ning yuqori qismidan	102	117
9.	Ardaxshan	tog'ning yuqori qismidan	59	38
10.	Turkmansoy	tog'ning yuqori qismidan	147	276
11.	Jalairsoy	tog'ning yuqori qismidan	140	98

Jizzax viloyatida bir qancha suv omborlar ham mavjud. Ular ichida maydonining kattaligi jihatidan Jizzax suv omborini alohida takidlash joiz. Suv ombori Jizzax shahridan 9 km janubi- sharqda Yoyilmasoy jarligida joylashgan. Maydoni 13,8 km. kv., suv hajmi 100 mln. m³, chuqurligi o'rta hisobda 26 m ni

tashkil qiladi. Suv omboriga Sangzor daryosi suvi to'planadi va keyingi yillarda maxsus kanal orqali Sirdaryo suvi ham keltirildi.

O'rta asrlarda Nurota tog'lari etagida Xonbandi suv ombori qurilgan. Bu suv ombor Forish tumanining markazidan 12-15 km shimolda Pasttog' darasi ichiga joylashgan. Xonbandi Nurota tog'idan oqib chiqadigan Osmonsoy va Ilonchisoyning sel suvlarini jamg'arib yozda ekinlarni sug'orish uchun barpo etilgan. Uning to'g'oni granit toshlari va suvga chidamli maxsus qorishmalardan ishlangan.

To'g'onning balandligi 15,2 m uzunligi 51,5 m. Xonbandining uzunligi 1,5 km, eni to'g'on oldida 52 m, dara og'zida 200 m ga va suv sig'imi esa 1 mln. 600 ming m^3 ga teng bo'lgan. Suv ombor yordamida Qizilqumning Mirzacho'lga tutashgan chegarasiga 1,5 ming gektardan ko'proq yer maydoni sug'orilmoqda. (3- jadval).

Jizzax viloyatida antropogen ko'llar hamshakllangan. Ulardan eng yirigi Aydarko'l Nurota tizma tog'larining shimoliy etagidagi Jizzax va qisman Navoiy viloyatlari hududida joylashgan texnogen ko'l. 1969-yilgacha Aydar sho'rxogida mayda sho'r ko'llar va sho'rlar (Jalpoqsho'r) keng tarqalgan edi. 1968-1969-yillarda yog'ingarchilikning haddan tashqari ko'p bo'lishi tufayli Chordara suv ombori to'g'onini yuvib ketmasligi uchun Sirdaryo oqimining bir qismi (qariyb 21 km.kv.) Aydar botig'iga oqizilgan.

Aydarko'lning shimoliy qismi ancha sayoz, o'rtacha chuqurligi 10-12 m, chuqur joylari 26-30 m. Aydarko'l tor yo'laklar orqali yagona tabiiy ko'l Tuzkon ko'li bilan tutashgan. Uzunligi 159 km., eni 26 m. Aydarko'l Jizzax viloyatidagi Oqbuloq, Sangzor daryosining Qili tashlamasi, Chordara suv ombori va Markaziy Mirzacho'l tashlanmasi oqimi hisobiga to'yinadi.

Jizzax viloyati hududidagi qishloq xo'jaligi ekinlarini suv bilan ta'minlash maqsadida bir qancha kanallar qazilgan. Ular ichida eng qadimgi Abdullaxon II davrida Zarafshon daryosidan qazilgan Tuyatortar kanali hisoblanadi. Uzunligi 54 km., suv sarfi 45,0 m^3 . Tuyatortar kanali Baxmal tumanidagi Muzbel qishlog'i

Viloyatdagi eng katta suv omborlari

3-jadval

T/r.	Nomi	Maydoni km. kv.	Suv hajmi mln. m/kub.	Suv havzasi
1	Jizzax	13,8	100,0	Sangzor
2	Zomin	9,3	52,0	Zominsoy
3	Qorovultepa	7,53	53,0	Zarafshon
4	Xo'jamushkent	0,45	8,0	Xo'jamushkentsoy
5	Novqa	0,60	6,0	Novqasoy
6	Sarmich	0,13	4,3	Sarmichsoy

yaqinida ikkiga ajraladi. Birinchisi, shimoli- g'arbga tomon harakatlanib Bulung'ir tumani orqali Qorovulbozor suv omboriga quyiladi. Yana biri esa shimoli-sharq tomonga oqib Baxmal, G'allaorol tumanlarini suv bilan taminlaydi va G'allaorol tumanidagi Qashqabuloq qishlog'i yaqinida Sangzor daryosiga quyiladi. Tuyatortar kanali suvidan 40 dan ortiq ariqlar suv olgan. Bu ariqlarning eng qadimgilari Timchi, So'loqli, Qaliya, Qangli, Toqchilik, Ravalliq, Qulniyoz, Nayman, Dayravot, Saraylik, Gandumtosh ariqlari hisoblanadi. Tuyatortar kanali orqali jami 37,5 ming gektardan ko'proq ekinzorlar sug'oriladi. (4-jadval).

Bundan tashqari, viloyatda 220 dan ortiq artezian quduqlar orqali yer osti suvlari olinadi va ularning bir qismi qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun sarflanadi. Ma'lumki, Jizzax viloyatining asosiy qishloq xo'jalik ekinlari Sirdaryo suvidan sug'oriladi. Jumladan, Janubiy Mirzacho'l kanalidan 3 ta nasos stansiyasi suvni 176 m. balandlikka ko'tarib beradi. Shu bilan birga, Jizzax magistral kanallari jami 232 ming gektar maydonni suv bilan ta'minlaydi.

Jizzax viloyati ichki suvlarining shakllanishi sabablarini aniqlash, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu sababdan mintaq suvlarini hosil bo'lishi, uning miqdori va sodir bo'layotgan gidrologik jarayonlarni tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. XVI asrda qurilgan 94 km uzunlikdagi Tuyatortar kanali Zarafshon daryosi suvini Sangzorga quyadi.

Viloyatdagi eng katta kanallar

4-jadval

T/r.	Kanallar nomi	Qurilgan yili	Qaysi daryodan suv oladi	Uzunligi (km)	Suv sarfi (m/kub.sek.)
1	Do'stlik kanali	1897	Sirdaryo	116	230
2	Janubiy Mirzacho'l	1962	Sirdaryo	128	335
3	Jizzax magistral kanali (1)	1964	Sirdaryo	67	38,6
4	Jizzax magistral kanali (2)	1967	Sirdaryo	49	39,0
5	Jizzax magistral kanali (3)	1969	Sirdaryo	47	37,0
6	Tuyatortar	1912	Zarafshon	54	45,0

1.5. Biologik resurslarining tarqalishi.

Jizzax viloyati tog' va tog' etaklari bo'ylab cho'zilib ketgan tekisliklarda tog' oldi qiyaliklarida va past tog'larda qalin lyoss yotqiziqlari mavjud. Bu yerdagi karbonatli jinslarda, xususan lyossimon qumoglar ustida bo'z tuproqlar hosil bo'lgan. Lyoss ona jins bo'lib uning ustida bo'z tuproq shakllangan. Bo'z tuproqli yerlar hududning dengiz sathidan 300-500m dan 1200-1400m gacha bo'lgan balanddagi joylarda uchraydi.

Och tusli bo'z tuproqlar hududning 300-500m balandda bo'lgan tog' etaklaridagi tekis yerlarda va qadimgi allyuvial tekisliklarda uchraydi va bu yerlar tog'-cho'l mintaqasiga kiradi.

To'q tusli bo'z tuproq yanada balandroq 600-1000m balandda bo'lgan joylarni ya'ni hududning tog' oldi qiyaliklarini ishg'ol qilgan. Ba'zi bir joylarda 1200-1400m va undan ham yuqorida uchratishi mumkin.

Viloyatning tog' oldi hududlarida obikor dehqonchilik, asosan, och tusli va tipik bo'z tuproqli joylarda avj olgan. Bunday yerlarda asosan g'o'za, beda va boshqa yem-xashak ekinlari ekiladi, sug'oriladigan katta maydonlarda esa tok va meva daraxtlari o'stiriladi.

Bundan tashqari, viloyatning tog' va tog' oldi hududlarida deyarli barcha tuproq turlarini uchratish mumkin.

Morguzar tog'larining shimoliy yonbag'irlarida va bu yerdagi past tog'larni tipik bo'z tuproq ishg'ol qilgan. Zominsuv daryosining yuqori qismlarida jigar rang tuproqlar uchratiladi va bu yerlarda asosan archazorlar ko'pdir. Tog'larning 2800m, ba'zan 3000m dan to 4000m gacha bo'lgan qismlari tog' o'tloqlaridan iboratdir. O'tloqlar tagida och tusli qo'ng'ir-o'tloq-dasht tuproqlari hosil bo'lgan. Rang-barang o't qoplab yotgan subal'p va al'p o'tloqlari yozgi yaylovlar sifatida foydalanilmoqda.

Tog' va tog' oldi etaklaridagi adirlar, yoyilma konuslar va daryo terassalarida tuproq, o'simlik qoplami va hayvonot dunyosi xilma-xildir. Bu hududning o'simliklari, tog' oldi bo'z tuproqli dashtlarning o'simligi singari asosan efimerlardan iborat. Bahorda hamma o'simliklardan ilgari ko'karadigan qorabosh va qo'ng'irbosh orasida chuchmoma, lola, gulsafsar va boshqa piyoz ildizlar rang-barang bo'lib gullab yotadi. Eng so'ng ayiqtovon, lolaqizg'aldoq, turli astragallar gullaydi. Bu paytlarda o'simlik juda zich o'sadi, har bir kv.m.ga taxminan bir necha ming tupdan to'g'ri keladi. Boshqali dag'al o'simlik hisoblangan bug'doyiq tog' yon bag'irlarida va adir qismlarida efimer o'simliklar qovjirab-sarg'ayib qoladi va o'zining vegetasiya davrini tugatadi.

Tog' oldi qismlari qurg'oqchil paytida sugoriladigan obikor dehqonchilik qilish uchun juda qulay hisoblanadi. U yerlarda asosan bug'doy ekiladi, obikor paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik ham yaxshi rivojlangan. Bu hududda yorongul, limon sargosi, qazanliq atirguli, gulsafsar va cho'l yalpizi kabi efir moyli ekinlarni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Umuman olganda, tog'li va tog' oldi rayonlarning o'simliklari pastdan yuqoriga borgan sari o'zgara boradi. Bu hudud o'simlik qoplami rang-barangligi

bilan ajralib turadi. Bu esa balandlikning turlicha ekanligi ya'ni 350m. dan 4030m. gacha ko'tarilib borishi, rel'efning past-balandligi, tuproq-iqlim sharoitining xilma-xilligi oqibatidir. Masalan: Zomin milliy tabiat bog'ining tekshirilib chiqilgan barcha hududlarida uch xil o'simlik mintaqasi dasht, archazorlar, baland tog' mintaqasini uchratish mumkin va ularga xos bo'lgan o'simliklar bo'lib, asosan ignabargli, o'simlik va archa daraxtlaridan iborat. Archa- tog' o'rmonlariga xos bo'lgan daraxtlardan biri hisoblanadi. Archazorlar bog' maydonining 55 foizini tashkil etadi. Shuning uchun dengiz sathidan 2000-3000 metr balandlikdagi joylarni o'rmon mintaqasi deb atasa bo'ladi. Bog'da archaning 3 xil turi uchraydi. Zarafshon archasi (qora archa), sovur archa va Turkiston archasi. Archa har-xil sharoitda, har qanday yerda, hatto qoyalar orasida ham o'sa olish qobiliyatiga ega. Archa ko'p umr ko'radigan daraxt bo'lib, Zomin milliy tabiat bog'ida 500 yoshga kirgan kirgan kekxa archalar uchraydi.

Viloyatning tog' va tog' oldi hududi maydonida 130 xildan ko'proq o'simlik turi, jumladan 100 ga yaqin dorivor o'simliklar o'sadi. Daryo, soy va tog' yonbag'irlarida gulxayri, zira, do'lana, na'matak, zurburm, qirqbo'g'im, burmaqara, zag'aza, olatak, anzur, piyoz, andiz, tog' piyozi, kakra, mingbosh, qashqarbeda kabi dorivor va yovvoyi o'simliklar- do'lana, qarag'ay kabi rezavor mevali o'simliklar va xashakbob o'simliklardan bug'doyiq, taktak, yaltirbosh, betaga, bargak, chitir yovvoyi beda va boshqalar o'sadi. Bu o'simliklar tog'larga va tog' oldi etaklarga yoz faslida ajoyib husn berib turadi. Hududning o'simlik dunyosi har bir kishini o'ziga tortadi va huzr baxsh etadi. Hozirgi kunda tog'lardagi dorivor va rezavor bo'lgan o'simliklarni saqlash va tiklash alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Ularni tabiiy holatda saqlab qolish va ko'paytirish, kelajak avlod foydalanishi mumkin bo'lgan istiqbolli tomonlarini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda.

Jizzax viloyati tog' va tog' oldi hududlari hayvonot dunyosiga boy hisoblanadi. Bu yerda hayvon turlari ko'p, ular asosan tog'li o'lkalarda uchraydi. Turkiston tog'larining shimoliy yon bag'irlaridagi tog'li va tog' oldi hududlarda

hayvon va qushlarning turli hil vakillarini uchratish mumkin. Xuddi tuproq va o'simlik dunyosi kabi hayvonot olami ham pastdan yuqoriga ko'tarilgan sari o'zgarib boradi. Tog'ning o'rta va past qismlarida har bir o'simlik mintaqasiga xos hayvonlar yashaydi. Tog'larning baland qismlarida kiyiklar yashaydi. O'rta qismlarida yovvoyi hayvonlardan ayiq, silovsin, to'ng'iz, bo'ri, olmaxon, tulki shuningdek, bo'rsiq, arhar va ko'plab qismlarida esa jayra, tulki va sudralib yuruvchilarning bir necha turi yashamoqda. Archazorlar qushlarga boydir. Umuman Turkiston tizmasining shimoliy qismi ya'ni viloyatning tog' va tog' oldi hududlarida 90 xildan ortiq qush turlari uchratiladi. Shulardan 85 %i tog'larda uya quradi. Tog' kurkasi, burgut, bedana, qora laylak, tog' qorabavuri, jibljibon, kaklik, kakku, kaptar, bulbul, quzg'un, tentak qush, qumri, ukki, boyo'g'li, zag'izg'on, ko'k qarg'a va boshqa xil qush turlari shular jumlasidandir. Bu hayvon va qushlarni qo'riqlash maqsadida bu yerlarda ov qilish qat'iyan man etiladi. Region hududida yovvoyi hayvonlar va o'simlik dunyosini saqlash, Seversov qo'yi kabi tugab borayotgan noyob hayvonlar turlarini tiklash va ko'paytirish ishlari davom etmoqda. Regionning baland alp va subalp tipidagi landshaftlarning o'ziga xos ajoyib tog' hayvonlari bor. Tog'ning qoyali dalalarda va toshloq vodiylarida Markaziy Osiyo tog' takasi va kiyigi yashaydi. Tog' takasi doimiy qor chegarasida uchraydi, tog' kiyigi esa tog'li qismning 2500m. balandliklarda yashaydi. Yuqoridan pastga tushgan sari hayvonot dunyosi siyraklashib boradi. Asosan pastki tog' oldi rayonlarida yumronqoziq, sudralib yuruvchilarning bir necha turini uchratish mumkin.

II BOB. JIZZAX VILOYATIDA REKRATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI.

2.1. Rekratsiyani rivojlantirishning geografik asoslari, tabiiy komplekslari va ularni rekreatsiya nuqtai-nazardan baholash.

Jizzax viloyatining tog' va tog' oldi hududlari geologik rivojlanish davri, uning rel'ef shakllanishi asosan poleozoy erasida vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik tashqi kuchlar ta'sirida ancha yemirilib, sayqallanib qolgan. Uchlamchi davr tog' hosil bo'lish jarayonida turli xil uzilma, yorilma va ko'tarilmalar ro'y bergan. Natijada qaytadan tik ko'tarilgan bu tog' va tog' oldi hududlarida qiya tekisliklar, botiqlar, chuqur daryo vodiylarini uchratish mumkin.

Geologiyasi va gemorfologiyasining bunday rivojlanish davrlarini o'taganligi, bu hududda turli xil landshaftlarning tarkib topishiga imkon beradi. Umuman viloyatning tog' va tog' oldi hududlari janub va janubi-g'arb tomonga asta-sekin ko'tarilib boradi va tog' etaklaridagi daryo oqiziqlari hosil qilgan tekisliklarga, tog' etaklari va so'ngra tog' tizmalariga ko'tarilib, landshaftlarning bir necha turlarini hosil qiladi.

Yangi irrigasiya qurilishlari asosida sug'oriladigan yerlarni kengaytirish, tabiiy resurslardan yanada jadal foydalanish, shuningdek turli ekinlar hosildorligini oshirish yo'li bilan bu maqsadga erishish mumkin.

Lalmikor va obikor yerlarda dehqonchilik qilish uchun ham, chorvachilikni jadal rivojlantirish uchun ham tog' oldi va tog' hududlarida kata imkoniyatlar bor.

Viloyatning tog' oldi va tog' hududida joylashgan Zomin milliy tabiat bog'ida yuksak estetik sifatlari bilan ajralib turadigan landshaftlarni uchratish mumkin. Bu landshaftlar yuqoriga ko'tarilgan sari manzaraning, issiqlik hamda namgarchilikning o'zgarib borishi bilan tekislik landshaftlaridan ajralib turadi.

Ana shunday joylardan biri O'rikli soy landshafti kishini maftun etadigan darajada boshqa landshaftlardan ajralib turadi.

Ana shunday landshaft turlaridan Shirilloqsoy vodiysini, Supa vodiysini, Chortangi darasi, Ucho'choq landshaftini, Qushxona tog' cho'qqisini, Qirqqiz qoyasini, Qashqasuv vodiysini alohida ko'rsatib o'tish lozim.

Atrofimizda yastanib yotgan bunday chiroyli landshaftlar bundan bir necha yuz minglab yillar oldin ham bo'lgan. Ularning bundan keyin qancha umr ko'rishi faqatgina insonning tabiatga ta'siriga bog'liqdir. Ana shu tabiatning bebaho ne'matlarini kelajak avlodga o'z ko'rki va latofati bilan yetkazish bizlarga bog'liq.

Yer yuzasini quyosh nurlari kuchli qizdiradigan va sutkali harorat keskin o'zgarib turadigan quruq iqlim sharoitida turli xil kurash jarayonlari yuz berib turadi. Iqlimning o'ziga xosligi gitosenoz - o'simliklarning tabiiy sur'atda guruhlanish jarayonining shakllanishiga kuchli ta'sir o'tkazadi.

Masalan, bir xil turdagi o'simliklarni tog'da ham, tog' oldi hududlarida ham uchratiladi. Bu hududda 240-270 kun mobaynida havo ochiq keladi. Shuning uchun ham region quyosh yorug'ligi eng ko'p bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Sovuq bo'lmaydigan davrning uzoq- qisqaligi regionda keskin o'zgarib turadi, bu davr 223- 232 kunni tashkil etadi. Shunday qilib samarali harorat yig'indisi viloyatning bu hududida termik resurslari ko'pligidan dalolat beradi. Shu o'rinda Zomin tumanida tashkil etilayotgan quyosh nurlaridan elektr-energiya olish, undan xلق xo'jaligining turli sohalarida foydalanishni yo'lga qo'yish ko'zda tutilmoqdaki, bu nafaqat region uchun, balki butun viloyat va respublika uchun kata ahamiyatga egadir.

Iqlim resurslarining qulayligi bu regionda turli hil istiqbolli ishlarni amalga oshirishga qulaydir. Shunday istiqbolli ishlar tog' oldi va tog'li hududlarda yo'lga qo'yilishini ko'zda tutmoq zarurdir. Masalan, Morguzar tog'lari shimolida, Zomin milliy tabiat bog'i hududida sportning qishki turlarini rivojlantirish zarurdir. Shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, mana shunday qishki sport turlarini rivojlantirish, sport komplekslarini tashkil etish, turli xil dam olish maskanlarini, mehmonxonalar, transport yo'llarining jahon standartiga mos ravishda amalga oshirishni ko'zda tutmoq kerak.

Iqlimning qulayligi viloyatda, jahon bozorida alohida ehtiyoj talabiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik va chorvachilik maxsulotlarini yetishtirish imkoniyatiga egadir.

Viloyatning bu regionini nisbatan yer usti va yer osti suvlarining mo'lligi bilan ajralib turadi. Daryolardan Sangzor va Zominsuv alohida ahamiyatga ega. Bu daryolarda asosan qishloq xo'jalik yerlarini sug'orishda hamda aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun qondiriladi. Viloyatda shu maqsadlarni ko'zda tutgan holda Zomin, Jizzax, Qorovultepa suv ommorlari tashkil etilgandir. Bulardan tashqari yer osti suvlari mavjudki, ularni asosan insonlar salomatligini tiklash va yo'lga qo'yish uchun sharoit tug'diradi. Harakterli tomoni shundaki, viloyatning tog' va tog' oldi regionidagi shifobaxsh suvlar kimyoviy va shifobaxshligiga eng mashhur mineral manbalaridan qolishmaydi.

Viloyat tog' va tog' oldi hududlari biologik resurslarining xilma- xilligi Rekreatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa viloyatda qishloq xo'jaligini turli sohalarini rivojlantirishga, o'simlik dunyosining turli tumanligi esa kishini maftun etadigan darajadagi tabiat manzaralarining vujudga kelishini, hayvonot dunyosining rang- barangligi, tog' va tog' oldi hududlarining tabiati yanada go'zallashib, barqarorlashuviga olib keladi. Tuproq turlarining hosil bo'lishi va taqsimlanishiga ko'ra viloyatning bu tog' va tog' oldi hududida cho'l- dasht, quruq- dasht, o'rmon- dasht zonalar va baland tog'li joylarda o'tloq zonalarining keng tarqalishiga olib keladi.

Viloyatning bu regionida o'simlik turlarining ko'pligi chiroyli tabiat manzaralarini hosil qilganki, uni ko'rgan har bir inson estetik zavq oladi. Asosan bu hududda o'simliklarning 700 ga yaqin turi uchratiladi. Masalan, birgina qo'ziqorinning 104 turi ma'lum. Qizil kitobga kiritilgan o'simliklardan oltin ildiz, mo'miyo, yalpiz turlari, zira, parpi, tog' lolasi, zirg, namatak va boshqalar hamda archaning uch xil turi uchratilishi alohida ahamiyatga egadir. Tog'larda archalar hosil qilgan landshaftlar kishini o'ziga maftun etadi. Bu hududda dorivor o'simliklarni ko'pligi kelajakda tibbiyot sohasida muhim bo'lgan yutuqlarni qo'lga kiritishda kata rol o'ynaydi. Tabiat manzaralarining xilma- xilligini ko'rgan, ularni

kuzatib o'rgangan Avstriyalik olim Xitxok Zomin tabiatiga shunday ta'rif bergan edi: "Bizni o'xshashi yo'q Zomin manzaralari o'ziga juda maftun etdi, go'zal archazorlar, tik qoyalar, tog'lardan otilib tushayotgan zilol suvlar xotiramizdan uzoq vaqt ko'tarilmaydi".

Bu shundan dalolat beradiki, viloyatning tog' va tog' oldi hududlaridagi tabiat manzaralari kishini o'ziga jalb qilish bilan bir qatorda respublikamizdagi, qolaversa jahondagi barcha tabiat manzaralari bilan tenglasha oladi.

Hayvonot dunyosining turli- tumanligi ham alohida ahamiyat kasb etish bilan bir qatorda, landshaftlarning turli bo'lishi rang- barang turlarning tarqalishiga imkon yaratgandir. Ana shunday hayvonlardan to'ng'iz, bo'ri, tulki, o'rmon quyoni, oq panja ayiq, jayra, sudralib yuruvchilardan- sariq ilon, gurzi, qushlardan- cho'l miqqisi, chug'urchiqlar, qoshqarg'urрак, tojdor chittak, kaklik, himolay ulari, tog' chumchug'i, burgut ko'plab uchratiladi. Tog'larning baland va sovuq mintaqalarida tog' barsi, ilvirs, menzbir sug'uri, tog' echkisi, yovvoyi arxor, ayiq va boshqalar yashaydi. Bunday turlarning ko'pligi viloyat faunasining keng tarqalganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda insonlarning asosiy vasifasi viloyatning bunday go'zal tabiatini, asl holicha saqlay bilishdir. Kelajakda bu tog' va tog' oldi hududlaridagi chiroyli manzaralar respublikamizdagi eng hushmanzara, obod dam olish maskanlaridan biri bo'lib qolishiga ishonchimiz komil, albatta...

Shu qatorda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bu hududdagi tabiatda sodir bo'lib turadigan voqea- hodisalarning ajoyib va g'aroyib ko'rinish berib turishi, shamol ishi va erroziya natijasida vujudga kelib qolgan tabiatning nodir obidalari ham diqqatga sazovordir. Ana shunday nodir obidalarini ko'plab uchratish mumkin. Masalan, Zomin tog'laridagi "Qirqqiz" qal'asi, "Kuyovtosh", "Savat ko'targan kelinlar" kabi nodir obidalarini ko'rib kishining hayrati oshadi.

Bunday sirli shakllarni Morguzar tog'larida xususan, milliy tabiat bog'i hududida ham uchratish mumkin. Bunday tabiiy obidalaridan "Qirqqiz qal'asi", "Savat ko'targan kelinlar", "Kuyovtosh" kabilar shular jumlasidandir. "Qirqqiz" qal'asi respublikamizdagi murakkab tuzilishga, xilma- xil ham boy ko'rinishga ega

bo'lgan kamyob va nodir obidalardir. U Sangzor daryosining G'o'ralashsoy havzasidagi Qizilto'ri massivida joylashib, quyi archazorlar bilan o'ralgan. Bunday nafosatli maskanning janubiy- sharqida Qirqqiz soyi bor. Qal'a taxminan 3- 4 gektar maydonni egallagan. Qal'aning "darvozasi" janubgasoy o'zaniga qaragan. Darvozaning janubiy- sharqida ijodkor tabiatning qo'li bilan yaratilgan sarvqomat qiz tasviri qad ko'targan. Haykalning balandligi 12 metr, belining diametri 1 m, yerga tegib turgan ko'ylagi etagining diametric 2 metrga yaqin, "Qirqqiz" qal'asi poleogen davrining oxiri va neogen davrida hosil bo'lgan jinslarning har- xil qotishmalaridan tuzilgan. To'rtlamchi davr yuz bergan tektonik harakatlar natijasida tog'lar o'sgan, ayni vaqtda ularda yemirilish- erroziya jarayoni ham kuchaygan. Uning tagidagi neogen davrining jinslari yuzaga chiqqan. Tashqi kuchlar ta'sirida ularning nurashi yanada tezlashib, shamollarning murakkab harakati, erroziya nuragan qoyalarni silliqlab, tarashlaydi. Bunday murakkab harakatning uzoq muddat davom etishi tufayli yuzaga chiqqan niogen yotqiziqlarida har- xil shakllar hosil bo'ladi. Bu qo'rg'onning paydo bo'lishida ham xech qanday ilohiy kuch yo'q. uni mohir tabiar vujudga keltirgan.

G'o'ralashsoyning o'ng qirg'og'ida katta Qorashaqshaq qishlog'idan 4-5 km sharqiy tomonda tabiatning o'tmishdan qolgan antiqa obidasi saqlangan. Uni xalq "Tosh bo'lgan kuyov", "Kuyovtosh" deb ataydi. Rivoyatlarga ko'ra, yor visoliga tashna yigit sevgilisini uzoq yillar izlaydi. Nihoyat u dildorini topa olmay qaxraton qishda muzlab qoladi va toshga aylanadi.

"Kuyovtosh"ning balandligi 10.m ga yaqin, diametric 2 metr atrofida. Tosh qadimgi jinslarning qurama qotishmasidan tashkil topgan. Ular orasida qum va ohaktoshlar, palaxsa-slanets kabi jinslarning quloq, chaqir, nishli va ko'p qirrali shakllari uchraydi. Bunday tosh qotishmalari qo'ng'ir sur rangni eslatib, quyosh nuri ta'sirida rang- barang tovlanadi.

"Kuyovtosh" G'o'ralashsoyning 2-trassasida joylashgan. Uning paydo bo'lishi to'rtlamchi davrning golosen bosqichiga to'g'ri keladi. Yoshi 10.000 ga yaqin deb taxmin qilinmoqda.

2.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitining rekreatsiya faoliyatiga ta'siri.

O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan Jizzax viloyati qadimiy voha hisoblanadi. Ming bir buloqlari, qaynar tog'u qirlari, ko'ksini hosilga to'ldirgan dala-yu bog'lari, qadim- qadimda qad tiklagan qo'rg'onu- rabotlari, tabiat mehridan yaralgan istirohat bog'lari bilan mashhur maskandir. Bu tarixda ne bir g'orlar, o'ngirlar, rasm yozuvlari, she'riy va tarixiy bitiklarni asragan qoyatoshlar, yilning boshlanishiga nisbatan bergan Morguzar tog'laridagi O'ttosh, G'allaoroldagi quyosh kalendari border. Sharq va g'arb o'rtasida qadimiy savdo aloqa yo'li o'tganligi, ya'ni buyuk ipak yo'lining Zomin hududi markazi bo'lmish Zomin shaharchasidan o'tganligi tarixdan ma'lum.

IX-X asrlarda arab geogrifi Kudamo Ibn Jafar Jizzax viloyatining Zomin tumani haqida quyidagi so'zlarni bitganlar. "Samarqanddan chiqqan karvonlar tog' yo'llari orqali kelib, Zominga qo'nar edilar. Shu yerda o'z mollarini beradigan mamlakatlarga monandlarini ajratar va bir- birlari bilan ayribosh qilardilar. Zomin Choch va Farg'onaga bo'linadigan transit yo'llarning punkti, shuningdek Zomin Samarqanddan sharqqa- Shosh turklariga va Farg'onaga boradigan yo'llarning bo'linishidagi joy edi".

Ustrushona davlati markaziy shahridan keyin Zominda XI asrdan boshlab tanga "Dirham" pullari chiqara boshlagan. Zomin Ustrushona davlatida bo'lganida ham, Movaraunnaxr- Afg'oniston- Xindiston va Shoshga bo'linadigan yo'lda joylashganligidir. Tarixiy manbalardan ham ko'rinib turibdiki, viloyat hududidan ipak yo'li o'tganligi, qadimgi davrda ham Jizzax shahri hamda Zomin shaharchalari asosiy savdo- sotiq markazlaridan biri bo'lganligi, xususan VII-XII asrlarda voha hayoti birmuncha rivojlanganligi, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik taraqqiy etib, Jizzax yaqinidagi Mirasmandda har oyning birinchi kuni katta jahon bozori bo'lgan. Jahon bozorida Jizzaxda tayyorlangan jun mat ova liboslar, pilla, temir va metal buyumlar, Ustrushona feruzasi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Vohaning tarixi va geografik o'rniga oid ma'lumotlar Z.M.Boburning "Boburnoma" asarida ham ko'rsatilganki, vohaning go'zal tabiati, tog'u-

toshlarning o'ziga xosligi, landshaftlarning joylashishidagi qulayliklarning mavjudligiga e'tibor qaratilgandir.

Jizzax viloyati Rossiya tarkibiga o'tgan 1866 yildan uezd, 1924 yildagi ma'muriy bo'linishdan tuman bo'ldi. Nihoyat 1973 yil 29 dekabrda viloyat sifatida qaror topdi. Hozirgi mustaqillik davrida Jizzax viloyati respublikaning markaziy qismida joylashganligi uning iqtisodiy jihatdan rivojlanishida, muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yirik shaharlar bo'lmish Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi shaharlarga yaqinligi viloyatning yanada rivoj topishiga imkoniyat yaratadi.

Viloyat aholisi sonining tez sur'atlar bilan o'sishi o'ziga xosdir. Viloyat tashkil bo'lganida aholisi 398 ming kishidan iborat edi. Aholining 76 mingi yoki 19%i shaharda, 332 mingi yoki 81%i qishloqlarda yashardi. Oradan 20 yildan ortiqroq vaqt o'tgandan so'ng viloyat aholisi ikki barobardan ko'proq o'sib 872,5 ming kishiga yetdi. O'tgan davrda shahar aholisi qariyb to'rt barobar ortib, 280,1 ming kishini tashkil etdi. Qishloq aholisiesha 592,4 ming kishiga ko'paydi. Shunday qilib, viloyat aholisining 32,1%i shahar va 67,9%i qishloq aholisiga to'g'ri keladi. Viloyatda aholi soni tez sur'atlar bilan ko'paymoqda. Buning asosiy sabablari tarixiy, ijtimoiy- iqtisodiy, demografik omillar bilan bog'liq. Shunga ko'ra aholi soni yiliga 24-26 ming kishiga o'smoqda. Shu jumladan shahar aholisi 11-12 ming, qishloq aholisi 13-14 ming kishiga ko'paymoqda.

Viloyatda urbanizasiya jarayoni ro'y bermoqda, ya'ni shaharlar soni ko'payib bormoqda.

Shahar aholisi ham to'xtovsiz o'sib, umumiy aholi soniga nisbatan 20 yil ichida 19% dan 32,1% ga yetdi. Shaharlarning viloyat xalq xo'jaligi taraqqiyotidagi o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Viloyatda shaharlar aholisi sonining umumiy aholi sonidagi salmog'i ko'payib bormoqda. Buning asosiy sababi, yangi shaharlar va shahar tipidagi posyolkalarning ko'payib borishi va ularda aholi sonining ham tez sur'atlar bilan o'sayotganligidir.

Viloyat katta mehnat resurslari salohiyatiga ega. (3-jadval)

Mehnatga layoqatli aholi 398,8 ming kishini tashkil etib, umumiy aholi sonining 45,1%ini tashkil etadi. (4-jadval)

Mustaqillik davriga kelib Jizzax viloyati o'zining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qulay joylashganligi, tabiatning o'zgachaligi bilan ajralib turishi tabiiy xol. Respublikaning turli viloyatlari, hamda Qoraqalpog'iston Resoublikasi, shuningdek MDH davlatlari bilan bog'lanadigan avtomobil vat emir yo'llar viloyat hududidan o'tadi. Shu sababli viloyat markazi yaqinida qurib ishga tushirilgan maydoni 50 gektarli "Jaxon bozori" ham alohida ahamiyatga ega. Chunki kelajakda bu bozor O'zbekistonning va qo'shni davlatlarning asosiy mahsulot ayriboshlash yoki xalqqa xizmat ko'rsatuvchi asosiy markazlardan biri bo'lib qoladi. Shunday ekan hozirdanoq uning rivojlanishi uchun qulayliklar, shart-sharoitlar yaratilib borilmog'i lozim.

Mehmonxonalar sonini ko'paytirish, maishiy xizmat turlarini rivojlantirib boorish, umuman rekrasion faoliyatni kengaytirish zarurdir. Bunday tadbirlardan nafaqat shahar atrofida, balki tabiatning so'lim go'shalari hisoblanmish viloyat tog'li rayonlaridan Zomin va Baxmalda ham rivojlantirilib yo'lga qo'yilmog'i kerak.

Tabiatning nodir obidalarini tomosha qilib, undan bahra olish uchun kelgan sayyoxlarga Zomin va Baxmalda tashkil etilgan "Ona va bola" pansionati, turli xil dam olish uchun mo'ljallangan zonalar, tog' yon bag'irlaridagi tabiiy ajoyibotlar, salqin va toza havoli soyliklar, Oyqartog' va Zomin tog'laridagi archazorlar bahor, yoz va kuz mavsumlarida dam oluvchilarga xush yoqadi albatta. Shunday ekan ularning dam olishlari ko'ngildagidek o'tishi uchun turli shart- sharoitlar zarur. O'sha tog' zonalarining o'zida ham mehmonxonalar tashkil etishni yo'lga qo'yish, avtomobil yo'llarini yanada kengaytirish zarurdir.

Chunki 60-80 km uzoqlikda joylashgan viloyat markaziga dam oluvchilarning kelib- ketishi qanchadan- qancha sarf- harajatlarni talab etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Samarqand shahrida ishga tushirilgan Xalqaro aeroport ham Jizzax viloyatida Rekreatsiyani yanada rivojlanib, gullab-yashnashi uchun ahamiyat kasb etadi. Chunki dunyoning barcha mamlakatlari

bilan bog'lovchi bu aeroport- Samarqand hamda Toshkentni bog'lashida bevosita viloyatning o'rni bor. Masalan, Samarqanddan Toshkentga yoki Farg'ona vodiysiga o'tayotgan har bir sayyoh yoki yo'lovchi albatta viloyatning savlat to'kib turgan tog'lari, saxovatli buloq, soy va daryolarini, betakror tabiatidan zavq olib, uning turli xil chiroyidan baxramand bo'ladi.

Jizzax viloyatining tog'li hududlari katta rekratsion salohiyatga ega. Chumqortog', Zomin, Molguzar, Hurota tizmalari va ular oralig'idagi tekisliklar, soylar, buloqlar va tog' o'rmonlari betakror tabiiy manzaralarni hosil qiladi, inson salomatligi uchun juda foydali muhitni yuzaga chiqaradi. Zomin tumanida qurilgan sanatoriya respublikada mashhur bo'lib, turli kasalliklarni davolash bilan birga turizmni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Nurota tizmasi joylashgan Forish tumanida Nurota- Qizilqum biosfera rezervati tashkil qilingan va bu jarayon aholi turmush tarzini yangicha shakllantirish bilan birga tabiiy jarayonlar va hodisalarni muhofaza qilishi maqsad qiladi. Baxmal, G'allaorol, Jizzax tumani tog'li hududlaridagi rekratsion salohiyat to'lig'icha yuzaga chiqarilgani yo'q. bu hududlarga odamlarning tartibsiz ravishda dam olishga chiqishlari doimiy hodisadir va bu o'z navbatida hududlar tabiatiga katta zarar keltiradi.

Tog'li hududlarda aholi punktlarining rivojlanish istiqbollari tabiiy sharoit o'zgarishlari va resurslar salohiyatiga bog'liqligini ta'kidlagan holda, bunday bog'liklikka yangi ko'rinishdagi yo'nalishlar berish masalani ijobiy hal qilishning yagona yechimidir.

Tog'li hududlar aholi punktlarining rivojlanishini tabiiy sharoit va resurslarga muvofiq belgilash quyidagi bosqichlarga ega:

- Tog'li hududlarda tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish;
- Muhofaza qilinadigan hududlar chegarasini aniq belgilash;
- Muhofaza qilinadigan va rekratsiya maqsadida foydalaniladigan hududlarda talabga mos infrastrukturani shakllantirish;
- Xalqaro turizm yo'nalishlaridan hududga muvofiq turlarini shakllantirishga imkon yaratish;

- Aholi turmush tarzini tabiiy resurslardan foydalanish yo'nalishidan xizmat ko'rsatish yo'nalishiga o'tkazish jarayonini tashkil qilish;
- Tog'li tumanlar shaharlarida xizmat ko'rsatish va turizm- rekratsiya infrastrukturasini shakllantirish va rivojlantirish;
- Tog'li hududlar aholi punktlarini rakratsion xizmat turlari bo'yicha tabaqalashtirish va ixtisoslashtirish;

Bu chora- tadbirlarni amalga oshirish uchun aholi turmush tarsi va xo'jalik faoliyatiga uzluksiz ta'sir o'tkazib boorish va o'zgarishlarni kiritib borish talab etiladi. Binobarib bu jarayon ancha vaqtni qamrab olishi mumkin, lekin tabiatni muhofaza qilish va aholining ijtimoiy rivojlanishi sarflanga vaqt va mablag'ni oqlaydi.

Aholi punktlarini bunday bosqichlarga muvofiqlashtirishda bir qancha tabiiy va iqtisodiy- ijtimoiy omillarga e'tibor qaratish talab etiladi. Bosqichlarning o'ziga xos xususiyatlari aholi punktlarining shakllanishiga turli darajada ta'sir ko'rstadi va muvofiqlashtiradi. Tabiiy muhofaza qilinadigan hududlarni aholi ta'siridan butunlay xoli qilish mumkin emas, shuningdek muhofaza choralari hududiy tashkil qilish muhim tadbirdir. Bunday hollarda aholining o'zi tabiatning muhofaza qilinishidan manfaatdor bo'lishi ta'minlanishi kerak. Muhofaza qilish tadbirlari aholining ishtiroki moddiy ta'minlanishi ayni muddaodir. Aholining tabiiy hududlar muhofazasidan manfaatdorligini ta'minlash qat'iy muhofaza qilinadigan va rekratsiya maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan hududlarga xizmat ko'rsatish infrastrukturasini tashkil qilish orqali doimiy holatga keltiriladi. Bugungi kunda xalqaro turizm yo'nalishlari rang- barang shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa ekologik yo'nalishdagi turizm shakllari Jizzax viloyatining tog' va tog' oldi hududlarida katta imkoniyatlarga ega. Masalan, bugungi kunda o'lkamizga kirib kelayotgan etnografik turizm, agroturizm yo'nalishlari, tabiat manzaralari va tabiiy jarayonlarni kuzatish yo'nalishidagi ekologik xavfsiz turizm shakllarini joriy qilish va ularga xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, viloyat tog' tumanlari aholi punktlarini rivojlantirishning eng maqbul yo'lidir. Ekologik turizmni shakllantirish aholi turmush tarzini an'anaviy chorvachilik va dehqonchilik yo'nalishlaridan xizmat

ko'rsatish yo'nalishiga buradi, bu esa aholi turmush tarsi, madaniy rivojlanishini ta'minlaydi. Tog'li hududlar aholisining an'analari, urf- odatlari, etnografik o'ziga xosliklari boshqa yurt vakillarini qiziqtiradigan holatda namoyon bo'lishini ta'minlash ayni bosqichning asosiy talabidir.

Tog'li tumanlarda yangidan shahar maqomiga o'tkazilgan aholi punktlari va qishloqlarda rekreatsiya maskanlari, turistik bazalar, kichik mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish shoxobchalarini bunyod qilish jarayonini uzliksiz olib borish, aholini yangicha turmush tarziga o'rgatib borishning bosh yo'lidir. Aholining o'zlari yashab turgan hudud tabiatiga mas'ulligini shakllantirish, ayni tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy me'yorlarini joriy qilish orqali amalga oshiriladi.

Tog'li hududlarda joylashgan aholi punktlarining rekreatsion va xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha tabaqalashtirish aholi punktlarini rivojlantirishning oxirgi bosqichidir. Bunda aholi punktlarini to'la shakllangan rekreatsiya va turistik xizmat ko'rsatish yo'nalishi ta'minlanadi hamda xalqaro turistik amaliyotda o'z o'rniga ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ekologik turizm yo'nalishlarini rivojlantirish tog' va tog' oldi hududlarida to'la imkoniyatlarga ega. An'anaviy turizmdan farqli ravishda ekologik turizm yo'nalishlari faqat tabiiy xushmanzaralik, o'simlik va hayvonot dunyosi, suv havzalarining mavjudligini talab qilmaydi. Masalan, agroturizm qishloq aholisining mehnat sharoiti va qishloq mehnatiga oid urf- odatlarni o'rganish, shu turmush sharoitida bir muddat yashab ko'rishni maqsad qiladi. Bunda mahalliy aholi turmush tarzining barcha qirralarini ochiq ko'rsatish talab etiladi. Agroturist cho'pon yoki bog'bon hayoti bilan yashab ko'rishni o'zida sinab ko'rishni xohlaydi va buning uchun pul to'laydi.

Jizzax viloyatidagi tog'li hududlar ulkan tabiiy salohiyatga ega ekanligi e'tiborga olinsa, bu hududlarni tabiiy holda saqlash, shu bilan birga aholi turmush sharoitini yaxshilash tog'li tumanlar aholi punktlarini rivojlantirish istiqbollarning bosh mezonini bo'lib qolishi maqsadga muvofiqdir.

2.3. Jizzax viloyatining rekreatsion va turistik imkoniyatlari.

Hozirgi kunda, O'zbekistonda turizmni rivojlanishi yangi bosqichga, ya'ni turizm industriyasi darajasiga ko'tarilmoqda. Bu o'z navbatida yildan- yilga respublikamiz hududiga turistlarning kelishi tadriji ravishda ortishiga sabab bo'lmoqda. 2012- yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 600 ming horijlik turistlar kelgan. Ushbu kelgan turistlar miqdorini Yevropa va Osiyoning turizmi rivojlangan davlatlariga kelayotgan turistlar bilan qiyoslash noo'rindir, lekin mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizga kelgan yoki bo'lmasa Markaziy Osiyo davlatlariga kelayotgan turistlar bilan taqqoslasak, turizm sohasini rivojlanib borayotganligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

O'zbekiston hududidagi xalqaro turistik yo'nalishlar haqida gap ketganda tarixiy obidalari bilan mashhur bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari, zamonaviy qurilishlari bilan ajralib turadigan Toshkent shahri hamda maftunkor tabiatga ega Farg'ona vodiysini ta'kidlanishi tabiiy xoldir. Bu turistik hududlar to'g'risida chet ellik va mahalliy turistlar yetarli darajada tasavvurga ega bo'lib bormoqda. Lekin, ushbu turistik hududlarning chorahasida joylashgan Jizzax viloyati xalqaro va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan turistik ob'ektlarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari haqida, chet ellik hatto, mahalliy turistlarda ham to'liq ma'lumot yoki tasavvurning yo'qligi achinarli xoldir. Masalaning shu jihatlarini hisobga olgan holda- Jizzax viloyatining turistik hududlari to'g'risidagi ba'zi bir mulohazalarimizni berib o'tmoqchimiz.

Jizzax viloyatining maydoni ($21,2\text{km}^2$) kattaligi va turli xil ko'rinishdagi turistik va rekreatsion ob'ektlarning mavjudligi tufayli ham bir yo'nalishda yoki bo'lmasa bir kun davomida aylanishga vaqt yetmasligini hisobga olib 3 ta turistik hududga ajratdik. Turistik hududlarga ajratishda, Jizzax shahridan borilganda bir xil marshrut yo'nalishda joylashganligi va turistik ob'ektlarning o'zaro yaqinligi asosiy mezon sifatida olindi.

1. Zomin-Xo'jamushkent rekreatsion hududi. Jizzax shahridan chiqqan sayyohlar ushbu yo'nalishda Pishag'or g'ori, Zomin shahri, Zomin suv ombori,

Zominsoy daryosi, tog' manzarasi, archazorlar, sharsharalar, Zomin sanatoriyasi, Kultepa arxeologik qazilmalari, Xo'jamushkent suv ombori hamda Xo'jamushkent avliyo maqbarasini ziyorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yo'nalish bo'ylab sayohat qilinganda borib-kelish yo'llarini hisobga olganda, taxminan 250 km yo'l bosadi. Yo'lining asosiy qismi avtobus yoki mikroavtobuslar bilan, 8 km lik masofa otlar bilan va 1-2 km piyoda yoki qish faslida chang'ilar yordamida xarakatlanishi mumkindir.

Zomin- Xo'jamushkent yo'nalishda xarakat qilgan sayyohlar qiziqishlariga ko'ra ilmiy- tadqiqot ishlari, davolanish, sport o'yinlari, dam olish va ziyorat amallarini ham bajarishi mumkin. Sayyohat bir necha kun davom etadigan bo'lsa, Zomin milliy bog'i hududidagi kempinglarda va Zomin shahridagi mehmonxonalarda dam olish imkoniyatlari bor.

Hozirgi kunda turistik hududni rivojlantirish uchun amaliy ishlar boshlangan. Zomin shahrini turistlar shahriga aylantirish uchun keng ko'lamdagi qurilish ishlari olib borilmoqda, ya'ni mahalliy turistik hududdan xalqaro turistik hudud bosqichiga o'tmoqda.

2. Baxmal- Lalmikor rekreatsion hududi. Jizzax shahridan chiqqan sayyohlar ushbu yo'nalishda Sangzor oromgohi, Temurlang darvozasi, Sangzor daryosining o'rta va yuqori oqimlari, Sa'd Ibn Abu Vaqqos avliyo maqbarasi, bulog'i, o'ziga xos bo'lgan baliqlari, Oyqartog' manzaralari, Novqa ota ziyoratgohi va buloqlari, Marjonsuv mineral suvlari va davolanish maskanlariga boorish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yo'nalish boylab sayyohatga borib- kelish yo'llarini hisoblasak, taxminan 190 km yo'l bosadi. Yo'lining asosiy qismi avtobus yoki mikroavtobuslar bilan, Lalmikor- Jizzax yo'nalishida 40 km tez yurar poezdlarda, shuningdek sayyohlarning xoxish va istaklariga ko'ra xarakatlanishning turli xil bositalaridan foydalanish mumkin.

Baxmal- Lalmikor yo'nalishida xarakat qilgan sayyohlar qiziqishlariga ko'ra ilmiy- tdqiqot ishlari, davolanish, sport o'yinlari, dam olish va ziyorat amallarini ham bajarish mumkindir. Sayyohat bir necha kun davom etadigan bo'lsa, Lalmikor

sanatoriyasida, mahalliy aholining uylarida hamda yoz faslida chodirlarda ham dam olish imkoniyatlari bor.

Turistik hududni rivojlantirish uchun hozirgi kunga qadar yetarli darajadagi amaliy ishlar olib borilmagan. Faqat, Sadir Vokos avliyo maqbarasi va Lalmikor sanatoriyasi hududidagi qurilish ishlari va xizmat ko'rsatish bir- muncha talab darajasiga yaqin bo'lsa, hududning qolgan qismlarida keng ko'lamda qurilish ishlarini olib boorish lozim bo'ladi va rivojlantirish talab etadi.

3. Aydar- Arnasoy ko'llar tizimi va uning atrogidagi rekreatsion hudud. Jizzax shahridan chiqqan sayyohlar ushbu yo'nalishda Temiryazovda ohaktosh qazib olinishini, Qili soyligidagi tik jarliklar, Pistalitog' manzaralari, Tuzkon, Aydar va Arnasoy ko'llari, to'qay va cho'l manzaralari, Mirzacho'l mineral suvlari va davolanish maskanlariga boorish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bu yo'nalish bo'ylab sayyohat qilinganda borib- kelish yo'llarini hisobga olganda, taxminan 230 km yo'l bosadi. Yo'lning asosiy qismida mikroavtobuslar bilan, shuningdek sayyohlarning xoxish va istaklariga ko'ra to'qay va cho'l manzaralarini tomosha qilayotganda ot va tuyalardan, ko'l manzaralarini tomosha qilayotganda qayiqlardan foydalangan xolda xarakatlanishi mumkin.

Aydar- Arnasoy ko'llar tizimi va uning atrogidagi rekreatsion hudud yo'nalishida xarakat qilgan sayyohlar qiziqishlariga ko'ra ilmiy- tadqiqot ishlari, fenologik kuzatishlar, davolanish, suv sporti o'yinlarini tashkil qilish va dam olishi mumkindir. Sayyohat bir necha kun davom etadigan bo'lsa, Do'stlik shahridagi mehmonxonada, Mirzacho'l sanatoriyasida va ko'l atrofidagi kempinglarda hamda yoz faslida chodirlarda ham dam olish imkoniyatlari bor.

Bu turistik hududning tabiatini tomosha qilish va bahra olish maqsadida arab turistlari ham tez-tez kelib turadi. Arab turistlarini bu hududga qiziqishi, ko'l va cho'l manzaralarining o'zaro uyg'unligi, shuningdek ko'l qirg'oqlarini to'qay va tog' landshaftlari tabiatining o'ziga xosligi va maftunkorligi kabi xususiyatlari, kelgusida chet ellik turistlar oqimini yanada kengaytirish imkoniyatlari bor.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va uning atrofidagi rekreatsion hududning xususiyatlaridan kelib chiqib turizmning ekoturizm yo'nalishini rivojlantirish,

tabiati xorijiy turistlarni qiziqtirayotgan ushbu hududda xizmat ko'rsatish sohasini halqaro talablar darajasiga ko'tarish lozimdir.

Shifobaxsh maskanlar

Zomin sanatoriyasi

Manzili: Jizzax viloyati, Zomin tumani, Duoba qishloq fuqarolar yig'ini, "Zomin sanatoriysi" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

Telefon: (+998 95) 504 63 15

(+998 91) 998 87 07

(+998 91) 599 95 31



e-mail: zominsanator@gmail.com

Yo'nalishi.

- Toshkentdan shahrining "Olmazor" metro bekatidan Toshkent-Zomin yo'nalishidagi mikroavtobus, Jizzax shahar bosh bekatidan taksilarda Zomin shahrigacha kelinadi;
- Zomin shaharchasidan "Zomin" sanatoriysi yo'nalishida qatnovchi taksilar orqali sihatgohga yetib kelinadi.

«Zomin» sanatoriysi Respublikamizda eng mashhur dam olish va davolanish maskanlardan biridir. Salqin va mo'tadil toza havosi archazorlar bilan qoplangan tog'-o'rmoni, dorivor xushbo'y o'simliklar, tog' hayvonlariga boyligi tabiatga o'zgacha ko'rk beradi.

«Zomin» sanatoriysi Jizzax viloyatidagi iqlimiy kurort. Tuman markazidan 50 km

uzoqlikda, Turkiston tog'-tizmasining shimoliy etaklarida, dengiz sathidan 2000 m balandlikda, qo'riqxonahududida archazorlar orasida joylashgan. SHu tufayli havoda atmosfera bosimi nisbatan past, kislorod va quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurga boyligi bilan yuqori nafas yo'llari va asab tizimi kasalliklariga bog'liq bo'lgan bemorlar uchun juda foydali.

Sihatgoh tog' yonbag'rida joylashgan 7 qavatli zamonaviy binodan iborat. Binoning 1, 2-qavatlarida davolash bo'limi, oshxona, qabulxona, ma'muriyat joylashgan. Davolash bo'limi zamonaviy diagnostika davolash apparatlari bilan jihozlangan va ularda 40 nafar malakali hamshiralar 15 nafar oliy toifali shifokorlar faoliyat ko'rsatadi. Laborator-tashxis xonasi UZI, EKG, stomatologiya, ginekologiya kabinetlari ishlab turibdi.

Ro'yxatxonada qabul qilinadigan dam oluvchilar qaytadan tor mutaxassisli shifokorlar va laborator-tashhis ko'rigidan o'tkaziladi, muolajalar buyuriladi.

Davolashda fizioterapiya omillaridan keng foydalaniladi. Yuqori va past chastotali toklar, parafin, massaj, ultrabinafsha nurlari bilan davolash shular jumlasidan. Bundan tashqari 2 ta yopiq cho'milish havzasi, sauna, dorili va marvaridli vannalar, turli xil dushlar, suv osti massajlari, balchiq bilan davolash mavjud. Vannalarga nina bargli archalardan olingan xvoy, CHortoq yod-brom tuzlaridan keng foydalaniladi.

Nafas yo'llari kasalliklarini davolashga moslashganligini inobatga olib sanatoriyda sun'iy mikroiklim – mayda kukunli natriy-xlorli tuz bilan Germaniyadan keltirilgan ingalyatsiya apparatidan keng foydalangan holda galoterapiya usulida davolash yo'lga qo'yilganligi natijasida bemorlarning tez kunlarda sog'ayib ketishiga erishilmoqda. Purkab davolash, ya'ni ingalyatsiya usuli bilan dorili antibiotikli dorivor o'simliklardan tayyorlangan nastoylar qo'llaniladi.

Ertalabki terenkur davolash gimnastikalari uchun 2 ta LFK zali mavjud, instruktor bemorlarni 5 xil guruhga bo'lib mashg'ulotlar o'tkazadi.

500 kishiga mo'ljallangan zamonaviy ko'rinishda ta'mirlangan va jihozlangan oshxonada shifokor-dietolog va hamshira tomonidan parhez taomlar buyurtma beriladi va alohida parhez stollari belgilab qo'yiladi.

Sihatgoh quyidagi bemorlarni qabul qiladi:

- Bronxial astmaning barcha turlarining yengil va o'rta kechishi xurujsiz davrida;
- Polinoz;
- Vozomotor rinit;
- Surunkali bronxitning barcha turi hurujsiz davri;
- Teridagi toshmali dermatit;
- Funktsional asab tizimi kasalliklari;
- Umumiy nevroz;
- Nevrosteniya;

Quyidagi kasalliklari (mone'liklari) bor bemorlar qabul qilinmaydi:

- Homiladorlar;
- Yurak-ishemik kasalliklari;
- Gipertoniya kasalliklari;
- Epilepsiya;
- Barcha bemorlar huruji davrida;
- 4 yoshgacha bo'lgan bolalar;
- Tuberkulyoz;
- Venerik kasalliklar;
- Yuqumli kasalliklar.

Quyidagi qo'shimcha pullik xizmatlar mavjud:

- Sauna-basseyn;
- Igloterapiya;
- Zuluk bilan davolash;
- Kislород-ko'pikli davolash;
- Umumiy massaj;
- UZI 1 organdan tashqari;
- EKG;
- Stomatogiya va laboratoriya xizmati (yo'llanma narxidan tashqari qo'shimcha);
- Ambulator sharoitda shifokor ko'riklari va barcha muolajalardan foydalanish.

Sanatoriyda 250 o'rinli klub, bolalar uchun o'yingohlar, billiard, kutubxona, diskoteka xonasi, oshxona, savdo shaxobchasi, avtomobillar to'xtash joylari mavjud.

Sihatgohda turli xil kontsertlar, diskotekalar, ekskursiyalar, turli xil mavzudagi uchrashuvlar va kechalar doimiy tarzda uyushtirilib turiladi.

Yotoqxona bo'limi 4-7 qavatlarida joylashgan bo'lib, barcha qulayliklarga ega 2 o'rinli xonalardan iborat. Yotoqxonalar lyuks, yarimlyuks va standart, bundan tashqari 4 o'rinli oilaviy lyuks xonalar ham mavjud.

Marjon suvi

Manzil: Jizzax viloyati, G'allaorol tumani, Lalmikor shaharchasi

Telefon: 8-594 347-52-20,

+99894 199-16-47,

+99894 -190-73-47

- Loyiha quvvati: 110
- Amalda: 110
- Umumiy maydon: 11,6593 kv m.
- Yotoqxona: 1066,68 kv m.
- Oshxona: 388,41 kv m.
- Galereya: 520,4 kv m.
- Davolash binosi: 581,7 kv m.
- Kotedj: 1383,21 kv m.
- Basseyn: 2350,25 kv m.



Keksalar va nogironlar, urush va mehnat fahriylari uchun “Marjon suvi” Respublika sanatoriysi to'g'risida

Keksalar nogironlar, Urush va mehnat faxriylari uchun “Marjon suvi” sanatoriysi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 2 iyundagi 357-sonli farmoyishi va Jizzax viloyat hokimligining 2004 yil 4 maydagi 147-sonli qaroriga

asosan tashkil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasidan guvohnoma olingan.

Sanatoriya yil mobaynida uzluksiz ishlovchi tibbiy-ijtimoiy muassasa bo'lib, urush va mehnat fahriylari, pinsioner va nogironlarni sog'lomlashtirish va dam olishni ta'minlaydigan maskandir.

“Marjon suvi” sanatoriysi Jizzax viloyati, G'allaorol tumani, Lalmikor shaharchasida joylashgan. Sanatoriyada 110 o'ringa mo'ljallangan yotoqxona hamda oshxona, 150 qatnovga mo'ljallangan davolash binosi, pullik xizmat bo'limiga qarashli 11 dona kotedjlar mavjud. Sanatoriya O'zbekiston Davlat arxitektura qurilish qo'mitasi tomonidan tasdiqlangansanitariya va gigiyena me'yoriga ega. Yong'inga qarshi va mehnat xavfsizligi bo'yicha talablarga javob beradigan, dam olib davolanuvchilar yashashi uchun yotoqxona va davolash binolari elektroenergiya, gaz, issiq va sovuq suv, maishiy sharoitlari talab darajasida maxsuslashtirilgan.

Sanatoriyada davolash muolajalari asosan ma'danli suvlar, mineral vanna, parafin, uqalash, kvars, marjonli vanna, ingalatsiya, ampilpuls, UZT, magnitorerapiya, UVCh, aylanma dush, svetovaya vanna, DDT, elektrouyqi, darsenval, ultratovush, galvanizatsiya, elektroforez, kishechnaya orosheniya, duodenal zondlash, igloterapiya, fitochoy, EKG, UZI, LFK, stat dush, suv osti massaj, balchiq, lazeroterapiya, apparat Szinda, stomotolog xizmatlari tashkil topgan bo'lib, ular yordamida xarakat tayanch, asab, ovqat xazm qilish organlari, yurak qon tomir hamda yuqori nafas yo'llari kasalliklarini davolash ishlarini olib boradi.

Sanatoriyada 2 ta oliy, 3 ta I-toifali vrachlar, 8 ta oliy, 7 ta I-toifali hamshiralar faoliyat yuritmoqda.

Jizzax

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasiga qarashli keksalar, nogironlar, urush va



mehnat faxriylari uchun “JIZZAX” SANATORIYSI

Manzili: Jizzax viloyati, Jizzax tumani, H.Nosirov SIU, Sh.Boboyev ko'chasi, 9-uy.

Telefoni: 8 (372) 226-63-90

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimidagi “Jizzax” keksalar, nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriysi tog'lar yon bag'rida, havosi toza, soya salqin joyda joylashgan bo'lib, sanatoriy yon tomonidan Sangzor daryosining irmog'i oqib o'tadi.

2003 yildan buyon sanatoriyda keksa va nogironlar, urush va mehnat faxriylariga tibbiy, ijtimoiy va madaniy xizmat ko'rsatib kelinmoqda.

Sanatoriyda asosan yurak qon tomir, tayanch harakat va asab tizimi kasalliklari bilan kasallangan fuqarolarga xizmat ko'rsatiladi.

Sanatoriy 50 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, tibbiy, ijtimoiy va madaniy tadbirlar o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Davolashda asosan fizioterapiya muolajalari orqali tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Sanatoriyda 10 ta dam olish xonasi, 3 ta fizioterapiya xonasi, 1 ta laboratoriya xonasi, 1 ta davolash jismoniy tarbiya xonasi mavjud. Xonalar zarur tibbiy, qattiq va yumshoq jihozlar, san-texnika jihozlari bilan ta'minlangan.

Fizioterapiya muolajalaridan massaj, svetovanna, darsonval, tubus, davolash jismoniy tarbiya, ingolatsiya, parafin, elektroforez, UVCh, fitoterapiya mavjud. Bundan tashqari dam oluvchilarning madaniy xordiq chiqarishlari uchun kutubxona tashkil qilingan, har 12 kunda madaniy musiqiy tadbirlar uyushtirib turiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 maydagi 1542-sonli qaroriga asosan sanatoriyda 100 o'rinli yangi bino qurilish ishlari olib borilmoqda.

Gagarin ma'danli suvlar shifo maskani

Manzili: Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumani, Gagarin shahri, Quttiboyev ko'chasi, 5-uy.



tel.: 8(372) 312-21-07, (+99893) 674-04-40, (+99898) 368-11-44.

Elektron manzili: infogms@bk.ru

Veb-sayti: gms.uz

«**Gagarin ma'danli suvlari**» sanatoriysi viloyatning shifobaxsh maskanlaridan biri. Bu yerdan chiqadigan ma'danli suvi ming bir dardga davo hisoblanadi.

Bu shifo maskanining tarixi mamlakatning Qo'riq yerlarini, xususan Mirzacho'lni o'zlashtirish, albatta, suv chiqarish tarixi bilan chambarchas bog'liq. Voha tarixida 1971 yilda Mirzacho'l tumanining Yerjar posyolkasida yer osti suvining topilishi va uning shifobaxshligi, shu yerlik mahalliy aholining, qolaversa, dardiga shifo izlovchilarilarning baxti bo'lgan deya ta'riflanadi.

Shifo maskani 1977 yilda zamonaviy uslubda 3 qavatli binoda bunyod etilgan. Shifo maskaniga Gagarin nomi berilishiga sabab, 1981 yilda xuddi shu maskanga viloyatning qo'riq tumani, Mirzacho'l markaziga, jumladan ushbu shifo maskaniga birinchi kosmonavt – Yu.A.Gagarin tashrif buyuradi. Shundan keyin Mirzacho'l tumani markazidagi shaharga hamda shifo maskaniga Gagarin nomi berilgan.

Shifo maskanining birinchi qavatida asosan davolash va muolaja xonalari joylashgan bo'lib, barcha texnik talablarga mos ravishda davolash asbob-uskunalar bilan jihozlangan.

Shifo maskanining balneologik bo'limida 6 ta suv bilan davolash ishlari olib boriladi. Shuningdek, yuqori chastotali, parafin applikatsiyali kislorod kokteyli bilan davolovchi xonalar, issiq-nur bilan davolovchi va massaj xonalari, ginekologik, oshqozon, o't-pufak, jigar va boshqa organlar xastaliklarini davolash xonalari mavjud. Eng e'tiborlisi, bu yerda 10 nafar davolanuvchiga bir vaqtning o'zida muolaja ko'rsatiladigan balchiq bilan davolash ishlari olib boriladi. Bu balchiq Jizzax viloyatining Baliqli ko'lida tayyorlanadi.

Ma'danli suvi bilan davolash yoki gidroterapiya asosan kurort va boshqa davolash maskanlarida tashqi ya'ni vanna, dush qabul qilishda, shuningdek, ichish yo'li bilan davolashda qo'llaniladi. Shuningdek, suv bilan davolashda basseyndagi

muolajalar ham kiradi. Basseynda ma'danli suv bilan qizdiriladi, bu esa asab va yurak-tomir tizimini, nafas olish yo'llari funksiyasini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, bu yerda

- igna sanchish
- manual terapiya
- sog'lomlashtirish saunasi
- Sharko dushi
- "Marjon" vannasi (gidromassaj)
- gimnastika bilan davolash
- magnitoterapiya
- fitoterapiya bilan davolash ishlari olib boriladi.

Xizmat ko'rsatish:

Shifomaskanida davolanuvchilar ikki o'rinli palatalarga joylashtiriladi. Har bir xona zamonaviy mebellar bilan jihozlangan

Muqaddas ziyoratgohlar

O'zbekiston diyori betakror obidalar va qadamjolari bilan dunyo ahlining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Mustaqillik yillarida o'zlikni anglash, tarixiy haqiqatni tiklash, qadamjolarni obodonlashtirish ishlariga davlat ahamiyatiga molik masala sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda Jizzax viloyati hududida jami 372 ta madaniy meros ob'yektlari, xususan, tarixiy obida va muqaddas ziyoratgohlar, arxeologik manzilgohlar, monumental yodgorliklar davlat muhofazasiga kiritilgan.

Amir Temur (Ilon o'tdi darasi) darvozasi

Jizzax vohasi tarixida Amir Temur darvozasi alohida o'rin tutadi. Ushbu yodgorlik ulug' va tabarruk otabobolarning nazari tushgan, muqaddas ziyoratgoh sifatida e'zozga loyiq.



Turkiston tog'lari guruhiga kiruvchi Molguzar va Nurota tog'lari tutashgan Sangzor daryosining tog'ni kesib o'tgan qismidagi darada joylashgan bu qadamjo toshlaridagi tarixiy yozuvlar, rasmlar va g'or olis tariximizning aks-sadosi sifatida qimmatlidir.

Daradan avtomobil yo'li, temir yo'l, beton ariq va daryoning qadimiy o'tadi. Qo'hna yodgorlik hududi 10,0 gektardan iborat.

Yodgorlikning Amir Temur darbozasi deb atalishiga asosiy sabab, jahongir bobomiz Amir Temur yurish boshlashi paytida uning qo'shiniga tog' darasi ikki tomonga ajralib yo'l berganligi va shundan mazkur tog' darasi hazrat Amir Temur nomi bilan atala boshlaganligi to'g'risidagi rivoyat tarixiy manbalarda qayd etiladi. Darada tabiiy g'orga duch kelinadi. Yodgorlikning sharqiy tomonida ikki-ikki yarim metrlik balandlikda o'yib tushirilgan tosh rasmlar hududning odamzod evolyutsiyasining bronza davriga borib daxldor ekanligini bildiradi. Bu yerga yaqin tepaliklar o'rta asrlar tarixida So'g'ddan - Samarqanddan Ustrushona orqali Chin Mochinga olib boradigan karvon yo'li ustida joylashgan qo'nalg'alardan biri bo'lganligi shubhasizdir.

Ba'zi manbalarda, jumladan, "Qultegin bitiktoshi"da "Temir qopug'" tarzida tilga olingan ushbu yodgorlik turklar saltanatining janubiy chegara hududi sifatida tilga olingan. Shuning o'zidan ham Amir Temur darbozasi - Buyuk Ipak Yo'li ustida joylashgan qo'rg'on va qal'alar tizimiga oid strategik manzil ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu yerdagi "Ilon o'tdi" atamasi bu joyda soyning buralib, ilon iziga o'xshash iz hosil qilganligidan kelib chiqqan. Bu haqda Boburning "Boburnoma" asarida aytilgan.

Sohibqiron Amir Temur va temuriylar zamonida shahar va qo'rg'onlar qurilishi mo'g'ullar istilosidan so'ng avj oladi. Jumladan, XIV asrda qayta ta'mirlangan va yangidan qurilgan Qaliyatepa va O'rda shaharlari, Rabot va Moltop qo'rg'onlari, Ko'kgumbaz qal'asi shimoli-g'arbiy Ustrushonani Samarqand bilan bog'lovchi asosiy yo'l – Amir Temur darvozasining umumiy zanjir hosil qilib o'ragan holda joylashgan.

Mirzo Ulug'bek davlatni boshqargan davrlar (1409-1449) Toshkent, Yettisuv (Jete) va Mo'g'ulistonda temuriylarga qarshi bo'lgan muxolif kuchlarning faollashuviga to'g'ri kelib, Samarqand uchun Amir Temur darvozasi va shimoli-g'arbiy Ustrushona muhim ahamiyat kasb etganligi sababli bu hududdagi qal'a va qurg'onlar qayta ta'mirlangan hamda tiklangan.

Mirzo Ulug'bek yangi qurilishlar qilishdan ko'ra Chingizxon bosqini paytida va unday keyin vayron etilgan qal'a, qo'rg'onlarni ta'mirlashga, ular o'rnida yangi istehkomlar qurishga e'tiborni qaratgan.

Mo'g'ulistonda kuchli xonlik yuzaga kelishining oldini olishga ham Ulug'bek alohida e'tibor beradi. Shuni nazarda tutib, Dashti Qipchoqda Shermuhammadxonning xon bo'lib ko'tarilishiga ko'maklashadi. Bu o'rinda u Baraqxon va Shermuhammadxonlar kelgo'sida uning bo'yuqlarini so'zsiz bajaradilar, deb umid qilgan edi. Ammo Oltin O'rda xoni To'xtamishxon Amir Temurning nisbatan qanday g'irromlik qilgan bo'lsa, Baraqxon va Shermuhammadxonlar ham Ulug'bekning topshiriqlarini bajarmasdan, unga bepisapnd munosabatda bo'ladilar. Bundan g'azablangan Mirzo Ulug'bek 1424 yilning oktyabr oyida o'rtalarida qo'shin bilan yurish qiladi. Uning qo'shini Shohruhiyada qishlab, 1425 yilning mart oyida hujumni boshlaydi.

Mirzo Ulug'bek jangchilari Cho' daryosini kechib o'tib, mo'g'ullarning amir Ibrohim va Jahonshoh boshchiligidagi qo'shinlarini Ashpara va Oqsuv bo'yida mag'lub qiladi. Iyun oyining o'rtalarida Mo'g'uliston xonining qarorgohi bo'lgan Sulduzni zabt etadi. O'ljalar va asrlar bilan Samarqandga qaytishida Mirzo Ulug'bek bu ulkan g'alabasi sharafiga "Ilon o'tdi" darasidagi qoyatoshga ushbu so'zlarni o'ydirib yozdiradi: "Oллоh taoloning inoyati bilan, xonlar va beklar, xalqlar podshohi, Oллоhning yerdagi soyasi, buyuk sulton Ulug'bek Ko'ragoniy (xudo uning umrini ziyoda qilsin!) Jetelar va Mo'g'ullar mamlakatiga yurish qildi va u yerlardan hijratning 828 yilida eson-omon qaytib keldi".

Amir Temur darbozasidagi ikkinchi lavha Abdullaxonga (1557-1598) tegishli. U hukmronlik qilgan yillarda Dashti Qipchoqda hokimiyatni Abdullaxonga o'sha paytda kuchli raqib hisoblangan Baraqxonning o'g'li Boboxon egallagan edi.

Ma'lumki, Abdullaxon bir necha yil Boboxon va Darveshxonga qarshi kurash olib borib, nihoyat 1572 yil "Ilon o'tdi" dasida ularning qo'shinlari qarama-qarshi jangga kiradi. Bu jang uzoq va shiddatli bo'ladi. Bu hayot-momot jangida Abdullahon qo'shini zafar qozonadi. Ana shu g'alaba sharafiga Abdullahon qoyatoshga qo'yidagi so'zlarni yozdiradi:

"Hijriy 979 yili... xonlarning ulug'i, Ollohning yerdagi soyasi, Iskandarxon o'g'li, buyuk hoqon Abdullahonning xalifalik kuchlari bo'lmish 30 ming kishilik jangovar to'dasi bilan Darveshxon va Boboxonlar to'dasi o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Mazkur to'dada hammasi bo'lib sultonlar avlodidan 50 mingga yaqin kishi, xamda Turkiston, Toshkent, Farg'ona va Dashti Qipchoqdan kelgan 400 mingga yaqin xizmatkor bor yedi. Bu jangga baxt yulduzi hamroh bo'lgan to'da g'alaba qozondi. Bu to'da sultonlarni yengdi, ularning qo'shiniga shunchalik qattiq zarba berdikim, jangda o'lganlar va asir olinganlarning qoni Sangzor daryosi suvida bir oy davomida oqib turgani ma'lum bo'lsin!"

Uchinchi yozuv XIX asrning oxirlarida Nikolay II tomonidan yozdirilgan bo'lib, bugun bu yozuv qoyatoshdan olib tashlangan.

"SA'D IBN ABU VAQQOS" ZIYORATGOHI

Jizzax vohasi tarixidan o'rin olgan mazkur ziyoratgoh G'allaorol tumanining Avliyo qishlog'ida joylashgan bo'lib, ikki bo'lakka bo'lingan. Ziyoratgohning yuqori



qismi – ko'lbo'yi hududishifobaxsh va muqaddas buloqlari, bir-biridan go'zal va maftunkor go'shalari, o'ziga xos fusunkor tabiati, betakror manzaralari bilan har qanday kishi dilini masrur etadi. Qadamjoni pastki qismi bu yerdagi ko'hna masjid va xilxonasi bilan e'tiborga molik.

Masjid binosi XIX asrda jizzaxlik o'z davrining mohir binokorlari – usta Komil, usta Qobil, usta Zuhur va usta Mirziyolar tomonidan bunyod etilgan. U sharqona uslubda bunyod etilganligi bilan har qanday ziyoratchining e'tiborini tortadi. Binodagi ganchkorlik ishlari o'ta mahorat bilan bajarilgan. Uning shiftidagi rango-rang naqshlar bir paytlar mohir naqqosh sifatida dong taratgan Mirzo Zoid va usta Bobojonlar haqiqatdan ham o'z kasbining mohirlari bo'lganligidan dalolat beradi. Ulkan mehnat va yuksak mahorat mahsuli bo'lgan naqshlar bizning kunlarimizgacha ham o'z ohorini yo'qotmagan.

Sa'd Ibn Vaqqos Makka ashroflaridan birining o'g'li bo'lib, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga payg'ambarlik vahiyi kelgan paytda navqiron bir yigit bo'lib, ulalom diniga kiradi va sarkardalik xislatlarini namoyish qiladi.

U hijratning o'n oltinchi yili Xalifa Umar ibn Xattobning Eron va Movarounnahrqa yuborgan qo'shiniga yo'l boshchi etib tayinlanadi. Hozirgi Avliyo qishlog'i yaqinida bo'lib o'tgan jangda yaralanib, sinchilog'i uzilib tushadi, natijada xonaqoh o'rniga qoni to'kiladi. Sarkardaning sinchilog'ini qishloqning shimol tarafidagi qabristonga dafn etiladi (bu yerda chog'roq xonaqoh bor), tabarruk zotning qoni tomgan ko'l bo'yidagi yaqin joyda ham xonaqoh barpo qilingan.

Bo'lib o'tgan voqea Sa'd ibn Abu Vaqqos (roziyallohu anhu) sog'lig'iga ko'p ta'sir etmaydi, u keyinchalik Arabistonga qaytib ketib, uzoq umr ko'radi. Nuroniylik davrida u davlandmand sifatida umr kechiradi. Lekin vofotiga yaqin yillarda jundan to'qilgan chakmonini keltirib berishlarini iltimos qiladi. Chakmonini keltirishganda: "Meni shu bilan kafanlanglar, chunki men bu chakmon bilan Badr jangida mushriklarga qarshi jang qilgan edim. Janobi Haq xuzuriga ham men shu chakmonimda borishni istayman..." ("Munjid" va "Sahobalar hayoti" kitoblaridan).

Bu yerdagi muqaddas buloqni ham "Sa'd ibn Vaqqos bulog'i" deb ataydilar. Hozirgi paytda bu joylarda go'zal, fusunkor manzara kasb etgan. Jizzax viloyat hokimligining doimiy g'amxurligi va e'tibori tufayli hamda sahovatpesha, qalbi tarixiy qadriyatlarga hurmat bilan limmo-lim kishilarning xayri-ehsonlari va sa'yi

harakatlari evaziga ziyoratgohning binolari ta'mirlangan, tartibga keltirilib, ziyorat maskani nihoyatda obod qilingan.

Shuningdek, ko'lda "muqaddas baliqlar"ni – O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan qorabaliqlarni ko'rish mumkin.

Ziyoratgoh hududi 14,2 gektarni tashkil etadi.

Istirohat bog'lari

Jizzax shahar "Istiqlol" madaniyat va istirohat bog'i

"Istiqlol" bolalar istirohat bog'i Jizzax shahar Navro'z mahallasi SH. Rashidov shoh ko'chasida joylashgan bo'lib, hozirda 10500 nafar aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. 2004 yilgacha S.Toirov nomidagi madaniyat va istirohat bog'i sifatida faoliyat yuritgan. Mazkur bog' Jizzax viloyat hokimining 2004 yil 13 avgustdagi 213-sonli qaroriga asosan qayta tashkil etildi. Uning umumiy yer maydoni 37 gektarni tashkil etadi.

Bog'dagi jami daraxtlar soni 950 tup bo'lib, bu bog'ning umumiy yer maydonining 20 foizini tashkil etadi. Asfalt yotqizilgan yo'laklar 5 ga ni, skameykalar soni 14 tani tashkil etadi.

Bog' hududida jami 4 ta attraksion bo'lib, ularning 1 tasi yirik o'yin qurilmalari, 3 tasi esa kichik o'yin qurilmalaridir. Attraksionlarning barchasi 2010 yilda texnik sinovdan o'tgan.

Bog'da estrada maydonchasi majud. SHuningdek, 0.25 ga 1 ta suv havzasi, 1 ta sport maydonchasi mavjud. Sport maydonchasining egallagan maydoni 0.5 ga ni tashkil etadi. Bolalar shaharchasida bolalar o'ynashi uchun barcha qulaylik yaratilgan.

Bog' gavjum va sokin hududlarga ajratilgan. Bog'ning 0,05 ga hududini gavjum hudud, 33,0 ga hududini sokin hudud tashkil etadi. Boqqa 8 ta ya'ni "Qirol sher", "Bembi", "Do'stim Bumba", "Yura davri jonzotlari" (Dinozavr 2 ta),

“Bagira”, “Yura davri jonzotlari” (Brontazavr), “Kachal polvon va uning do’stlari”, “Bembinning yoshligi” haykallar o’rnatilgan.

Bog’ hududdi baxtli bolalikka bag’ishlangan shior va banerlar bilan bezatilgan.

Bog’ning yillik ish rejasi tasdiqlangan bo’lib, yil davomida turli madaniy, ma’naviy va ma’rifiy tadbirlar tashkil etib kelinadi.

Jizzax shahar “O’rda” ekologik madaniyat va istirohat bog’i

“O’rda” ekologik madaniyat va istirohat bog’i Jizzax shahar Temiryazov ko’chasi “Orom” bekatida joylashgan bo’lib, hozirda 40800 nafar aholiga xizmat ko’rsatib kelmoqda. Mazkur bog’ 1974 yil tashkil etilgan bo’lib, bog’ning umumiy maydoni 47 ga ni tashkil etadi.

Bog’dagi jami daraxtlar soni 8000 tup bo’lib, bu bog’ning umumiy yer maydonining 60 foizini tashkil etadi. Bog’ hududida jami 6 ta attraktsion bo’lib, ularning 3 tasi yirik o’yin qurilmalari, 3 tasi esa kichik o’yin qurilmalaridir.

Bog’ gavjum va sokin hududlarga ajratilgan. Bog’ning 2 gektarini gavjum, 20 gektarini sokin hudud tashkil etadi.

III-BOB. VILOYATDA HUDUDIIY REKREATSIYA TIZIMINI (HRT) TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY- IQTISODIIY VA EKOLOGIK MUAMMOLARI.

3.1. HRTni rivojlantirishda ijtimoiy- iqtisodiy muammolar.

Hududiy rekreatsiya tizimini (HRT) barpo etishda, joyning tabiiy sharoiti-rel'ef, iqlim, suvlar, biologik resurslar, umuman landshaft muhim va yetakchi omil hisoblanadi. Biroq hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bunyod etiladigan rekreatsiya maskanlari hamma tomonlama jaxon standartlariga to'g'ri kelishi lozim. Shuningdek rekreatsiya hududlari xizmat ko'rsatish sohasida juda yuqori samaralarga erishishi lozimki, ayniqsa bu ajnabiy sayyohlarni jalb etishda muhimdir. Rekreatsiyani rivojlantirishda tabiatning xushmanzara go'shalaridan tashqari xalqning tarixi, an'analarini, uning rivojlanish tarixi va madaniyatini o'zida aks etgan tarixiy yodgorliklarning mavjudligi ham muxim rol o'ynaydi. Bu borada Jizzax viloyati o'ziga xos o'rin tutadi. Jizzaxdan Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i o'tgan. Shahar X asr arab sayyohlari Ibn Havqli va Maqsidiylar asarlarida Ustrushonaga qarashli Faknon viloyati deb tilga olingan. Keyinchalik Dizak ("Qal'acha") deb atalgan. Shaharga kiraverishdagi qal'alar Kushon podsholigi (I-IV asrlar) davrida qurilgan.

VIII- asrda Kandipark ("Viloyat devori") bilan o'ralgan, bu devor XIII asrgacha bir necha marta ta'mirlangan. Jizzax, Buxoro xonligi (XVIII asrning 2-yarmidan boshlab 1886 yilgacha) davrida Buxoro amirligining muhim strategic shahri bo'lgan.

"Dzamin-Ude" mo'g'ulchada- "yo'l ochiq" degan ma'noni bildiradi. Ya'ni Zomin hududida "Buyuk ipak yo'li"ning karvoni uchun yo'l ochiqligidan dalolat beradi. Zominda ipak yo'li ikkiga ajralgan. Biri janubiy- Farg'ona yo'li, ikkinchisi esa Shosh yo'li- "Turkiy yo'l" deb nomlangan. Zomin Ustrushonaning ikkinchi yirik shahri bo'lgan. Uning 4 darvozali 15 ga yaqin karvon- saroyi, o'ng tomonda yirik jome masjidi bo'lgan. Demak milodning boshlarida ham Zomin Turkistonning eng katta, yirik shaharlaridan biri bo'lgan.

Shahar va qishloqlardagi tarixiy yodgorliklarni tiklash va o'rganish ham rekreatsiyada muhim rol o'ynashi aniq.

Biroq viloyatda rekreatsiyani hududiy tashkil etishda iqtisodiy- ijtimoiy muammolarni bartaraf etish muhim masaladir. Bu viloyat iqtisodiyotini kompleks rivojlantirishni taqozo etadi. Rekreatsiyani rivojlantirish istiqbollari quyidagi iqtisodiy- ijtimoiy muammolar yechimi bilan bog'liqdir:

- Jizzax shahari XRT markazi sifatida tog' va tog' oldi hududlarini sifatli avtomobil, temir, osma yo'llar bilan ta'minlanishi lozim. Viloyatda bor- yo'g'i 250 km temir yo'llar mavjud. Rekreatsiya maskanlari bilan Jizzaxni qolaversa, Toshkent- Samarqand avtomobil yo'lini XRTning turli hududlari bilan bog'lash kerak. Tog'ning tepa qismlaridagi maskanlarga osma yo'llar bunyod etish maqsadga muvofiq;

- viloyatda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar maydoni 1314,9 ming gektar yerdan 452 ming gektari xaydaladigan yerlar. Bog' va tokzorlar 20,7 ming ga, pichanzorlar 12,5 ming gektar, yaylovlar 798,6 ming gektar. Sug'oriladigan yerlar 290,5 ming gektar bo'lib, shuning 141,2 ming gektariga g'o'za ekiladi. Qishloq xo'jaligi asosida sanoatni ayniqsa, oziq- ovqat ishlab chiqarishni rivojlantirish (non, go'sht, sut, vino- konyak, turli meva sharbatlari va x.k.) dam oluvchilar ehtiyojini ta'minlash muhim;

- rekreatsiya mintaqalarida xizmat ko'rsatish infrastrukturalarini rivojlantirish;

- rekreatsiya mintaqalarini to'liq elektrlashtirish, gazlashtirish, qishda isitish, suv ta'minotini yaxshilash;

- dam olishning barcha turlarini;

- uzoq va qisqa muddatli, qishki va yozgi; ov, tog' alpinizmi, suv havzalarida hordiq chiqarish kabilarni yo'lga qo'yish;

- dam olish maskanlarini jaxon talablariga mos loyihalar asosida ta'mirlash va qurish;

- rekreatsiyani rivojlantirishda chet el sarmoyalarini jalb etish kabi omillar XRT rivojlanishida muhim sanaladi.

3.2. XRTning iqtisodiy- ekologik barqaror rivojlantirish yo'nalishlari.

HRTni ekologik barqaror rivojlantirish muhim masaladir. HRTning tabiiy sharoitini o'z holida saqlash, sof havosiga turli- tuman ta'sirlar o'tkazmaslik zarurdir. Birgina, viloyatning rekreatsiyani rivojlantirish mumkin bo'lgan hududlarida mavjud bo'lgan o'rmonzorlar turli xil daraxt turlari havoning musaffoligini saqlaydi.

Ma'lumki daraxt bargidagi yashil modda xlorofil- karbonad angidridni yutib, o'zidan sof kislorod chiqarib turadi. Olimlar aniqlashicha bir gektar o'rmondagi daraxtlar 24 soat mobaynida 30 kg fitonsid chiqaradi, bu esa o'z navbatida zararli bakteriyalarni yo'qotadi. Uchta daraxt bir kishini, 1 gektar daraxtzor esa 200 kishini sof kislorod bilan ta'minlaydi.

Rekreatsiyani rivojlantirishda asosan tog'lardagi o'rmonzorlarga e'tiborni kuchaytirish va kelgan sayyoh va dam oluvchilarga tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Masalan, 1 gektar o'rmonzor havodan 68 t gaz (CO_2) va boshqa zararli moddalarni yutib oladi, 18 ming kubometr havoni tozalaydi. 1 kubometr o'rmon havosida aniqlanishicha 300-400 ming bakteriya bo'ladi.

HRTni rivojlantirishda mavjud o'rmonzorlarda yoz davrida 1 sutka davomida 1 gektar maydondagi o'rmon o'zidan 2-3 kg fitonsid ajratadi. Shu munosabat bilan archa, dub o'rmonlarida havo mutlaqo tozadir. Har bir dam oluvchi va sayohatchi shuni bilishi kerakki, payhon qilingan o'simlikni tiklash uchun esa 70-80 yil muddat vaqt kerak bo'ladi. Bu esa tog' havosining o'zgarishiga olib keladi. Turistlar, dam oluvchilar sharoitini yanada ta'minlashda maxsus joylarda ovqatlanish uchun sharoitlar yaratilishi lozim. Aks holda o'zboshimchaliklar oqibatida mavjud o'simlik va daraxtzorlarning nobud bo'lishiga olib keladi.

Sayohatchilar va dam oluvchilar yana shuni bilishlari lozimki, joylarda o'simliklarga ta'sir etmasligi uchun avtomashina va turli xil transport vositalaridan foydalanishni bilishlari kerak. O'rmon oralab yurishlari ta'qiqlanishi zarur. Bu transport vositalari maxsus joylarda saqlanishi, turli xil idishlar- bankalar, shisha, chiqindi mahsulotlarini to'g'ri kelgan joylarga

tashlamlaslik kerak. Oqibatda tabiarning ifloslanishiga, soy va buloq suvlarining bug'lanishiga, bu bilan esa kishilar salomatligiga putur yetkazishiga olib keladi.

Rekreatsiyani rivojlantirish mumkin bo'lgan hududlarda sigaret chekish umuman ma'n etilishi kerak. Viloyatning bunday joylarida asosan iyul, avgust, sentyabr oylarida qurg'oqchilik fasli bo'ladi. Mana shunday davrda sigaret va gulhan yondirish oqibatida yong'in chiqishiga olib keladi va mavjud ming-minglab bebaho archazorlar nobud bo'lishi mumkin.

Viloyatning rekreatsiyani rivojlantirish mumkin bo'lgan hudud yaqinlariga sanoat korxonalarini qurish qat'iy ma'n etiladi. Chunki, hammamizga ma'lumki, sanoat korxonalaridan chiqayotgan turli iflos chiqindilar tabiiy muhitga, tog'lardan oqib tushayotgan soy va buloq, daryo suvlariga ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Bu esa kishilar uchun eng zarur bo'lgan salomatlikning yomonlashuviga olib keladi. Umuman olganda inson salomatligi uchun zarur bo'lgan sof havoni bulg'amaslik, dam oluvchilar va sayyohlarning tabiat bag'rida yaxshi va ko'ngilli dam olishi hamda yaxshi tasavvurlarga ega bo'lishiga erishish har bir rekreatsiyani rivojlantirish mumkin bo'lgan hududlar uchun xos bo'lib qolishi lozimdir.

Bulardan tashqari viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollarini belgilayotganda ekologik aspektga katta e'tibor berish lozim, ya'ni iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishga erishmoq lozim. Shundagina, viloyatda sanoat, qishloq xo'jalik, ishlab chiqarish, transport va maishiy xizmat ko'rsatish sohalarining ravnaqi tabiatning o'zgarishiga salbiy ta'sir etmaydi. Tabiat esa o'z ne'matlarini insonlarga uzoq vaqtlar hadya etishdan charchamaydi.

Viloyatning ekologik sharoiti turli xil tabiiy-geografik, injenyer-geografik sharoitlarda shakllanganligi va rivojlanganligi uchun ularni baholash juda murakkab.

Deyarli o'zgarmagan hududlar asosan tabiiy va tekislik hududlaridan iborat. Tuproqlar, yer osti va yer usti suvlari ifloslanmagan. Tuproqlar sho'rli 1gr/kgdan kam, yyer osti suvlari 1gr/l gacha. Kuchsiz o'zgargan hududlar asosan tabiiy hududlardan iborat (cho'l, tog' oralig'i, tog'oldi, tog' hududlari). Tuproqlar va

yyer osti suvlari kuchsiz ifloslangan. Tuproqlar sho'rligi 1-3 gr/kg gacha, yyer osti suvlari 1-3 gr/l gacha. Mazkur hududlarda sug'orma va lalmi dehqonchilik rivojlangan.

O'rtacha o'zgargan hududlar asosan antropogen hududlardan iborat (tekislik, tog'oldi, tog' hududlari). Tuproq, yer osti va yer usti suvlari o'rtacha ifloslangan. Tuproqlar sho'rligi 3-10 gr/kggacha, yer osti suvlari 3-10 gr/l gacha, yer usti suvlari 3-10 gr/l gacha. Mazkur hududlarda sug'orma va lalmi dehqonchilik rivojlangan.

Kuchli o'zgargan hududlar asosan gidrogen, gidromorf hududlardan iborat. Tuproq, yer osti va yer usti suvlari kuchli ifloslangan. Tuproqlar sho'rligi 10 gr/kgdan ortiq, yer osti suvlari 10 gr/l dan ortiq, yer usti suvlari 10 gr/l dan ortiq. Mazkur hududlar asosan Aydarko'l-Tuzkon-Arnasoy ko'llarining qirg'oqlarida rivojlangan.

X U L O S A

Jizzax viloyati tog' va tog' oldi hududlari tabiatini muhofaza qilish va rekreatsiya boyliklaridan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan ushbu bitiruv malakaviy ishimiz quyidagi xulosalarni keltitib chiqaramiz:

1. O'rganilgan hududlarning o'ziga xos tabiatini rekreatsiyaning turli xillarini rivojlantirish imkoniyatiga ega.
2. Milliy mustaqilligimiz, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida hududda rekreatsiyani rivojlantirish bilan birga, uning tabiatini muhofaza qilish ham juda muhimdir.
3. Hududda rekreatsiyani rivojlantirishning tarixiy- madaniy asoslari va zamonaviy, iqtisodiy- ijtimoiy asoslari mavjud.
4. Hududda rekreatsiyani oqilona rivojlantirish uchun uning tabiiy sharoitini, landshaftlarini rekreatsiya nuqtai- nazardan baholangan, tabiatning noyob yodgorliklari, hamda tarixiy yodgorliklarini o'zida aks ettirgan kompleks kartalar yaratilishini talab etadi.

Asosiy iqtisodiy- ekologik barqaror rivojlanishga erishish viloyatda rekreatsiyani faoliyatini ravnaq topishi bilan birga uning go'zal- xushmanzara tabiatini muhofaza qilishga ham katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. T. "O'zbekiston", 1997, -326 b.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent, 1995-yil.
3. Alimqulov N.R. Jizzax viloyatida rekreatsiyani rivojlantirishning geografik asoslari (Tabiiy geografiyaning regional muammolari). Samarqand., 2002.,
4. Alimqulov N.R. Jizzax viloyatining tabiiy resurslari. (Geografiyaning nazariy va amaliy muammolari. II.-amal konf.) Samarqand. 2006.,
5. O.Burgutli. Bu ko'hna Zomin. Toshkent, 1996-yil.
6. A.M.Muhayminov. Zomin- qa'la shahri. Zomin, 1996-yil.
7. J.A.Xoshimov, R.X.Xalilov. Sangzor daryosi havzasining tabiiy boyliklaridan foydalanishning ba'zi muammolari. Издательство Узбекистанского ГО, том №-17,
8. Toshkenboyev A., Nosirov O'. jizzax viloyati. T.; "O'zbekiston", 1996
9. Hakimov Q., G'o'dalov M. jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax. 2004
10. Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi. Jizzax, 2012.
11. Vaxobov X., Alimqulov N.R. Jizzax viloyatining landshaft-ekologik sharoitini rayonlashtirish muammosi. (Tabiiy va iqtisodiy geografik rayonlashtirishning dolzarb muammolari. II.-amal. konf.). T., 2004.,
12. Vaxobov X., Nizomov A., Alimqulov N.R., Ibrohimova N. Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish asoslari. (O'zbekistonda turizm xizmatlarini takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmi. Resp. Ilmiy-amaliy anjumani). T., 2003.,
13. Jizzax viloyati hokimiyati Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari. 2003 yil.

14. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. Jizzax viloyati pasporti. 2005y.
15. Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisobotlari. 2002-2003 yillar.
16. Jizzax viloyati tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi. 1998-2002 yillarda Jizzax viloyatida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish holati to'g'risida ma'ruza. Jizzax., 2003y.